

«BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ,  
BIRLASHSAK – VATANMIZ!»



O‘zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

# Postda Ha nocty

2024-yil

25-iyul

payshanba

№ 30 (4672)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqqan boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

## MUSHKULLAR OSON BO‘LSIN DEB



**T**oshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanining «Xonobod» mahallasida 4800 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Aholi osoyishtaligini ta‘minlab kelayotgan profilaktika katta inspektori, katta leytenant Islom Chinpo‘latov doim odamlar orasida. Ularning muammolarini o‘rganish va bartaraf etishni muhim burchi

deb biladi. Bu borada unga mahalla raisi Alisher Ustakarimov ko‘maklashib keladi. Hamkorlikda olib borilgan sa‘y-harakatlar natijasida 8 kishi ishga joylashtirildi, ichki ishlar organlari profilaktik ro‘yxatida bo‘lgan 12 kishi ijobiy tomonga o‘zgardi.

– Faoliyatim davomida yuqori natijalarga erishib, yetuk mutaxassis bo‘lish uchun

muntazam izlanib kelaman, – deydi katta leytenant Islom Chinpo‘latov. – Bu borada tajribali ustozlarimning o‘g‘it va nasihatlariga tayanaman.

Profilaktika katta inspektorining jonbozligi, hamkorlikdagi faoliyati tufayli «Xonobod» mahallasi tumandagi «yashil» toifadagi hududlar sirasida.

## MUSHTARIY ILHOMI

## VATANIM

Ne bo'lsa barini bizlarga berding,  
Avlodlar yashasin erkin, shod, derding,  
Doimo xalqingning g'amini yerding,  
Sen borki, biz bormiz, jonajon Vatan.

Sening borligingning o'zi ulkan baxt,  
Sendan ustun bo'lmas hech bir toj-u taxt,  
Men seni sevaman, mudom, hamma vaqt,  
Sen borki, biz bormiz, jonajon Vatan.

Sen mening onamsan, doim mehribon,  
Bizlarni qo'llaysan, tolmaysan hamon,  
Bor bo'lg'in baxtingga sen doim omon,  
Sen borki, biz bormiz, jonajon Vatan.

Sen juda ulug'san senga ta'rif kam,  
Go'zalsan, nurlisan go'yo misli sham,  
Ta'rifga so'zlarni topolmam hech ham,  
Sen borki, biz bormiz, jonajon Vatan.

Seni ta'riflashga so'zlarim yetmas,  
Yurtim ajib sirsan xayoldan ketmas,  
Shunday hur Vatanni kim ham madh etmas,  
Sen borki, biz bormiz, jonajon Vatan.

**Zuhra RAHMONOVA,**  
IIV Navoiy akademik litseyi o'quvchisi.

## Yangi O'zbekiston inshootlari



Jizzax viloyatidagi BYD avtozavodi ilk avtomobillarini ishlab chiqara boshladi.

## HAFTA QAHRAMONI

## XALOSKOR



**Yakkabog' tumani «Besho'g'il» MFY hududidan o'tuvchi Qizildaryo bo'yiga bir guruh fuqarolar dam olishga kelishadi. Dam olish davomida ayollardan biri voyaga yetmagan farzandi bilan daryoga cho'milish uchun tushib, suvning tezoqar qismida o'z harakatini boshqarolmay oqib keta boshlaydi.**

Bu paytda shu yerdan o'tayotgan tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori, kapitan Sherbek Elmurodov tezda ona-bolani qutqarishga kirishadi. Taxminan yuz metr larcha oqib kelgan ona-bolani daryodan chiqarib oladi.

Surishtiruvlar davomida Qizildaryo-dan qutqarilganlar tumanning «Esat» MFYda yashovchi S.N. va uning farzandi E.S. ekani ma'lum bo'ldi.

Kapitan Sherbek Elmurodov 1990-yili Qarshi shahrida tug'ilgan. Qarshi davlat universitetini tugatib, dastlab Qarshi tumani qishloq xo'jaligi bo'limida faoliyat yuritdi, so'ng Qarshi shahridagi

qishloq xo'jaligi kollejida yoshlarga sa-boq berdi.

2017-yildan dastlabki xizmat faoliyatini Yakkabog' tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori lavozimidan boshladi. 2020-yilda «Mehr-saxovat» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Ayni kezlarda tumandagi «yashil» toifaga mansub «Samoq» mahallasi fuqarolariga xizmat ko'rsatib kelayotgan profilaktika inspektoridan mahalla faollari va fuqarolar minnatdor.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Qashqadaryo viloyati.*

## NAMANGAN VILOYATI



**Leytenant Nigora Norboyeva Norin tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida ish boshlaganiga ko'p vaqt bo'lmadi.**

Yosh bo'lsa-da, zimmasidagi mas'uliyatli vazifalarni sidqidildan ado etib kelayotgan Nigora Norboyeva olti

oy yakuniga ko'ra, 145 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirdi.

– Himoya orderi hujjatligicha qolmay, amalda xotin-qizlarni tazyiqqa uchramasligini ham ta'minlay olishi kerak. Shuning uchun ham bu toifadagi ayollar bilan hamkor tashkilotlar ko'magida ish olib bormoqdamiz, — deydi Nigora.

**O'z muxbirimiz.**



CHEKKA HUDUDLARDA

# MASHAQQATLI XIZMAT SAMARASI

**Andijon viloyatining shimolida joylashgan Izboskan tumani Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyatining Suzoq tumani, Namangan viloyatining Norin tumani hamda Baliqchi va Andijon tumanlari bilan chegaradosh. Aholi tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligini hududiy profilaktika inspektorlari ta'minlamoqda.**

2 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladigan Alisher Navoiy nomidagi mahalla hududi osoyishtaligiga **profilaktika inspektori, katta leytenant Nurbek Mamajonov** mas'ul.



*Katta leytenant Nurbek Mamajonov mahalla fuqarosi Abdulhafiz Toshemirov bilan.*

Profilaktika katta inspektori, mayor Akbarjon Ahmedov unga ustozlik qilib, bilim va tajribasi bilan beminnat o'rtoqlashyapti.

N. Mamajonov mahalla fuqarolar yig'ini raisi Xadicha Ismonova, hokim yordamchisi Nurilla Nizameddinov, yoshlar yetakchisi Abdulvohid Jo'rayev, xotin-qizlar masalalari bo'yicha faol Gulchehra Ismoilova, ijtimoiy masalalar bo'yicha mas'ul Pahlavon Sotvoldiyev va soliqlar bo'yicha mutaxassis Naibxon Shokirovlar bilan birgalikda fuqarolarning xonadonlarini aylanib chiqib, aholini qiynayotgan muammolarni hal qilishadi. Bundan tashqari, mahalla ahli hayotini yaxshilash bo'yicha turli takliflar bildirayotgan fuqarolar qabuli belgilangan kunlarda amalga oshiriladi.

– Hudud bo'ylab 150 ta videokuzatuv kamerasi o'rnatilgan, – deydi u. – Bu barqaror jamoat tartibini ta'minlashga salmoqli hissa qo'shmoqda. Joriy yil boshidan buyon hududda bironta ham jinoyat qayd etilmagan.

– Bo'linma tomonidan identifikatsiya kartalari, xorijga chiqish pasportlari berish,



*Serjant Faxriddin Rahimov.*

yaqin xorij mamlakatlaridan kelgan mehmonlarni va chet ellik sayyohlarni vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Joriy yil boshidan buyon 11 665 nafar fuqaroga identifikatsiya kartalari, 5378 kishiga xorijga chiqish pasportlari berildi. Shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan to'rt nafar fuqaroga identifikatsiya kartalari ularning xonadoniga borib topshirildi, – deydi **Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Oybek Abdurashidov**. – Inspektor, serjant Faxriddin Rahimov hamda pasportchilar, safdorlar Azizbek Sharipov va Izatillo Sotqinovlarning aniqlik va uyushqoqlik bilan olib borayotgan ishlari tufayli bo'limda navbatlar yo'q, fuqarolar belgilangan vaqtda kelib, kerakli ma'lumotlarni taqdim etishadi va identifikatsiya kartalarini shu kunning o'zidayoq olishadi.

Avtomobil ehtiyot qismlari do'konidagi M.Ikromov tuman IIBga kechasi «chaqirilmagan mehmonlar» do'konidan qariyb 16 million so'mlik avtomobil qismlarini o'g'irlab ketganligi bo'yicha murojaat qilgan. Tezkor xodimlar do'konga o'rnatilgan videokuzatuv kamerasi qaydlariga tushib qolgan shaxslarni aniqlab, qo'lga olishga muvaffaq bo'lishdi.

– Tergov davomida aniqlangani-dek, – deydi **tuman IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchisi, leytenant Mavlonbek Arabov**. – 23–24 yoshdagi uch nafar yigit avtomobil ehtiyot qismlari do'konidagi signalizatsiya tizimi ishlamay qolgani haqida xabar topib, do'konni tunashga qaror qilishgan. Tun qorong'usida ular do'kon eshigini o'rtvertka yordamida ochgan holda do'konga kirib, turli avtomobil qismlarini o'g'irlab ketishgan. Erta tongda esa Namangan shahridagi avtomobil bozoriga borib, o'g'irlangan mahsulotlarni sotishga uringan. O'sha kuni kechqurun ular qo'lga olindi va har uchoviga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi.



*Leytenant Mavlonbek Arabov.*

**Katta ekspert-kriminalist, katta leytenant Azizbek Abdullayev** ham IIV Akademiyasini tamomlagan. Yosh mutaxassis ko'plab jinoyat ishlarini ochishda ishtirok etgan. Misol uchun, yaqinda o'g'irlik qilgan shaxsni barmoq izlari yordamida aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Voqea shunday bo'lgan edi. Fermer A. Ismoilov o'z hududida mevani qayta ishlash sexi qurishni boshlaydi. U qurilish asboblari va bir necha o'nlab «akfa» romlarini metall konteynerda saqlagan. Bir kuni konteyner qulfi sindirilgani, umumiy qiymati qariyb 60 million so'mlik rom va qurilish mollari yo'qolganini ko'rib tuman IIBga murojaat qiladi.

Voqea joyiga tezkor-tergov guruhi tarkibida yetib kelgan katta leytenant Azizbek Abdullayev gumon qilinuvchining qulfi-

da qolgan barmoq izlarini olishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu izlar tekshirilganda, ular fermada mehnat qiladigan ishchiga tegishli ekanini aniqlandi. Gumonlanuvchi yashagan uyning qo'shimcha xonalaridan o'g'irlangan romlar va qurilish mollari topildi.

Jinoyatlarni ochish darajasi yuqoriligi har kungi mashaqqatli mehnat samarasidir. Lekin eng muhimi – fuqarolarning tinch-hotirjam hayoti. Ular har doim ichki ishlar organlari xodimlarining ishonchli himoyasida.



*Katta leytenant Azizbek Abdullayev.*

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



■ г. Ташкент

## В СЛУЖБЕ ВАЖНА ОПЕРАТИВНОСТЬ

Рядовой Миртемир Ахмаджонов в органах внутренних дел служит с 2016 года. Уроженец Ташкентской области в 2011 году окончил Уртачирчикский колледж агропромышленности и транспорта. Трудовую деятельность начал водителем автомобильной службы Академии МВД.

Продолжив службу в дежурной части 1-го отдела внутренних дел Мирабадского района в качестве помощника дежурного, он проявил усердие и старание, за что снискал уважение среди сослуживцев. В минувшем году Миртемир был назначен младшим инспектором в дежурную часть организационного отдела.

– В течение суток в нашу дежурную часть поступает свыше 80 обращений. Каждое обра-



щение рассматриваем оперативно, – говорит рядовой М. Ахмаджонов.

Мирабадский район достаточно густонаселенный. Здесь 39 махаллей, в которых проживает

около 150 тысяч человек. Законность и правопорядок обеспечивают 4 отдела внутренних дел.

## АТМОСФЕРА СПЛОЧЕННОСТИ

Жизненное правило жителей махаллей – добрососедство. Здесь царит взаимопомощь, совместно решаются насущные вопросы.



Площадь территории махалли Жасорат Мирзо-Улугбекского района столицы 108 гектаров. В 23 многоквартирных домах и 29 домах частного сектора проживает почти 2,6 тысячи человек. С 2022 года за правопорядок и общественную безопасность отвечает энергичный сотрудник – инспектор профилактики старший лейтенант Анвар Махкамов.

– В своей деятельности инспектор профилактики опирается на актив махалли, – говорит председатель МСГ Нурали Пардаев. – Он целенаправленно осуществляет работу по раннему предупреждению правонарушений, выявлению и устранению причин и условий их совершения. Деятельность инспектора результативна: с начала года в махалле не допущено совершения ни одного преступления. В единстве действий и сплоченности – залог успеха.



▶ ТҶҲАТ ҶРНИДА

**Адолатли, ҳалол, меҳнатсевар инсонлар доимо халқимизнинг ҳурмат-эътиборида бўлган. Узоқ йиллар ички ишлар органларида самарали хизмат қилган истеъфодаги подполковник Шавкат Отажонов ҳам ана шундай фидойи инсонлардан биридир.**

Ёшлиқдан илм олишга, ўқимишли, маърифатли инсон бўлишга интилан Шавкат Отажонов мактабни тамомлагач, Урганч давлат педагогика институтида таҳсил олди. У 1975–1981 йиллар Урганч туманидаги мактабда ўқувчиларга инглиз тилидан сабоқ берди ва келгусидаги фаолиятини халқ таълими соҳасида давом эттирди.

1984 йил Урганч тумани ИИБ бошлиғининг шахсий таркиб билан ишлаш бўйича ўринбосари лавозимига тайинланган Шавкат Отажонов етти йиллик самарали хизмати давомида кадрлар билан ишлаш соҳасидаги билим ва малакасини бойитди.

1991 йил майор Шавкат Отажонов вилоят ИИБ бошлиғининг шахсий таркибни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоялаш бўйича ўринбосари лавозимига тайинланиб, вилоят ва унинг қўйи тизимларида хизмат қилаётган ходимларнинг маънавий-маърифий билимларини ошириш, уларга ижтимоий ёрдам бериш, юртга ва касбга садоқат руҳида тарбиялашда ўзининг раҳбарлик ва ташкилотчилик қобилиятини намоён қилди. Бир қатор услубий ва таҳлилий қўлланмалар ишлаб чиқилишига бош-қош бўлди.

Устоз-шогирд аънаналарига амал қилиб, Кенжа Отажонов,

## ЕТМИШ ЙИЛЛИК ЙЎЛ



Қаландар Худойберганов, Озод Абдуллаев, Комил Ибрагимов, Хударган Болтаев, Рамонберган Авезовлар кейинчалик ички ишлар органларининг турли соҳавий хиз-

матларида раҳбарлик лавозимларида узоқ йиллар самарали хизмат қилишди.

Шавкат Отажонов вилоят ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш ҳамда Йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаларида масъул лавозимларда ҳам самарали хизмат қилди ва юрти-

ди ва у Ички ишлар вазирлигининг фахрий ёрлиқлари, кўкрак нишонлари билан тақдирланди.

Ҳаётини юртимиз осойишталиги, жамиятимиз фаровонлигига бахшида этган бу фидойи инсоннинг пенсияга чиққанига ўн етти йилдан ошган бўлса-да, у ҳамон жамиятимиз ривожига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиб келмоқда. Қолаверса, ёш ходимларни Ватанга муҳаббат, касбига меҳр, бурчиға садоқат руҳида тарбиялашда ўз маслаҳатларини аямапти.

Яқинда вилоят ИИБ раҳбарияти томонидан қутлуғ етмиш ёшни қаршилаган лавҳамиз қаҳрамонига «Ички ишлар органлари фахрий ходими» кўкрак нишони тантанали равишда топширилди. Тадбирда Шавкат Отажонов бундай эътибор ва эътироф учун ИИБ ҳамда вилоят ИИБ раҳбариятига ўз миннатдорлигини изҳор этди.

– Ватанга хизмат қилиш, эл-юрт тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш иши ҳар кимга ҳам насиб этавермайди, – дейди Шавкат Отажонов. – Тақдиримга мана шундай масъулиятли ва шарафли вазифа ёзилганига беҳисоб шукроналар қиламан. Бугун шогирдлар эътибори ва эътирофидан кўнглим тоғдек кўтарилди. Ширин хотиралар гавдаланди. Буям бир бахт, ахир. Ёшларга бахт ва омад, хизматларига муваффақиятлар тиламан. Юртимиз доимо тинч ва обод бўлсин.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

▶ YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

## MUHIMI – HARAKATDAN TO‘XTAMASLIK

**Har inson chinakam kasbini topib, unda mehnat qilsa, hayotda barakali umr kechiradi, deb hisoblaydi donolar. Sababi, o‘zi sevgan kasbning mashaqqatlarini muhabbati, qiziqishi orqali yengib o‘ta oladi va muvaffaqiyatga erishadi. Qahramonimiz Jarqo‘rg‘on tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi tergovchisi, katta leytenant Temurmaliq Bo‘riyev ham o‘z kasbini sevgani holda, zimmasidagi vazifalarning mas‘uliyatini his qiladi.**

Toshkentda yashovchi S.M. jarqo‘rg‘onlik tadbirkor K.X.dan qiymati 400 million so‘mlik mahsulot xarid qiladi. Kelishuv boshida mahsulotlar uchun 100 million so‘m pulni shu yerning o‘zida beradi, qolgan 300 million so‘mini biroz muddatdan keyin berishini aytadi. Tadbirkor bunga rozi bo‘ladi. Ammo S.M. mahsulotlarni olib ketgach, qolgan pulni bermaslik uchun ming bir bahonalarni to‘qiy boshlaydi. Oradan ancha vaqt o‘tgach, K.X. ichki ishlar organiga murojaat qiladi.

Tergov ishini olib borgan Temurmaliq Bo‘riyev ustalik bilan dalil to‘plashga kirishadi. Chunki oluvdor qilmishidan bo‘yin tovlashga tushadi. Telefondagi so‘zlashuvlar, kelishuv vaqtidagi guvohlarning ko‘rsatmalari, zarur hujjatlarni to‘plagach, fuqaro S.M. noiloj qilmishini tan oladi va jabrlanuvchiga pullarni to‘lab beradi.



Katta leytenant T.Bo‘riyev tomonidan fosh etilgan shu kabi firibgarlik, o‘g‘irlik, shaxsga tan jarohati yetkazish kabi jinoyat ishlariga qo‘l urgan kimsalar qonun oldida javob berishdi. Ayniqsa, shu yilning yanvar oyida sodir bo‘lgan o‘g‘irlik ortidan 7 ta o‘g‘irlik holatiga aniqlik kiritilib, jinoyatchilar qonun ixtiyoriga topshirildi.

– IIV Akademiyasini tamomlagach, faoliyatimni Qiziriq tumani IIB huzuridagi Tergov guruhida surishtiruvchilikdan boshladim, – deydi lavhamiz qahramoni. – Bugunga qadar ish faoliyatim davomida turli holatlarga duch keldim, turli jinoyat ishlarining tergov jarayonlarida qatnashdim. Ba‘zan ishning mashaqqatli jihatlariga sabr qilishga to‘g‘ri keldi. Ammo, muhimi harakatdan to‘xtamaslik, o‘z ustida ishlash va doimiy izlanish lozimligini tushunib yetdim.

Temurmaliq Bo‘riyev oilali, bir nafar farzandi bor. Turmush o‘rtog‘i Muqaddas Norqulova tibbiyot yo‘nalishida tahsil olmoqda. U ham turmush o‘rtog‘ining mas‘uliyatli vazifada ishlashini yaxshi tushungan holda, doim qo‘llab-quvvatlaydi. Chunki oilasida halovat topmagan kishi ishida ko‘ngli to‘lib mehnat qilolmaydi.

Katta leytenant T.Bo‘riyev jamoat tadbirlarida ham faol. «Eng yaxshi tergovchi» ko‘rik-tanlovida, «Zakovat» intellektual o‘yinlarida yosh bilimdon xodim sifatida qatnashib kelmoqda. Kelgusida esa o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish niyati bor.

**Feruz RAHMONQULOVA,**  
o‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

## Внутренний туризм

# ЧЕСТНО И ДОБРОСОВЕСТНО

**Майор Феруз Шарипов служебную деятельность в органах внутренних дел начал в 2014 году рядовым батальона ППС УООП СОБ областного УВД. Через два года продолжил службу в должности инспектора профилактики отдела внутренних дел города Кагана, затем оперуполномоченного отдела уголовного розыска Пешкунского РОВД. С 2017 года он является главным инспектором отдела обеспечения безопасного туризма областного УВД.**

– Это сравнительно новое направление деятельности органов внутренних дел предъявляет особые требования. Сотрудник должен обладать знаниями в области истории Узбекистана и древней Бухары, владеть иностранными языками, – говорит майор Феруз Шарипов. – Для меня большим подспорьем стало то, что в свое время окончил Ташкентский государственный университет востоковедения. Языковые навыки, в том числе владение английским, помогают общаться с гостями города, создавать безопасную туристскую среду.

Под началом майора Ф. Шарипова несет службу дружный коллектив, состоящий из групп обеспечения общественного порядка, безопасности дорожного

движения и профилактики правонарушений.

Проявляя требовательность к подчиненным, главный инспектор, вместе с тем, оказывает им всемерную помощь и поддержку в решении возникающих в процессе службы проблем. Это дает хорошие результаты в работе. За минувший период года обеспечена безопасность 22 делегаций из 13 стран и 4 международных организаций в составе 479 человек. Майор Ф. Шарипов принимает активное участие в мероприятиях, спортивных соревнованиях, занятиях по общественно-политической и учебно-боевой подготовке, проводимых с личным составом.

**Мирзокул АХАДОВ,**  
соб. корр.



## Аспект профилактики

# РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ СОВМЕСТНОЙ РАБОТЫ

**В эти дни правоохранительными органами и хокимиятом Самаркандской области проводятся специальные профилактические мероприятия «Хавфсиз оила» («Безопасная семья»), направленные на раннее предупреждение преступлений, которые могут быть совершены на семейно-бытовой почве.**



Члены рабочей группы проводят подворные обходы. К проведению мероприятий задействованы сотрудники госорганов, 74 инспектора профилактики,

20 инспекторов по вопросам женщин, 153 представителя махаллинских семерок. В Самаркандском районе изучено 1 083 семьи, проведено более

тысячи профилактических бесед с женщинами.

– Под пристальным вниманием неблагополучные семьи, родители, не исполняющие обязанности

по воспитанию и содержанию несовершеннолетних детей, – говорит заместитель начальника Управления профилактики правонарушений УВД Самаркандской области подполковник Нигора Ёдгорова. – Для предотвращения преступности среди женщин инспекторы совместно с активистами махаллинских сходов граждан провели адресное изучение имеющихся проблем. Выяснилось, что в районе 143 пары живут без регистрации отношений в ЗАГСе, а значит права женщин не защищены. Есть семьи, находящиеся на грани развода. Их в Самаркандском районе 186. Параллельно мы продолжили работу по выдаче охранных ордеров.

Одним из последних новшеств стало открытие в махаллях региона центров обеспечения занятости и укрепления здоровья женщин, где они могут получать профессию. С начала года в центрах обучились несколько тысяч женщин, многие из них затем открыли собственное дело.

Профилактические мероприятия продолжаются и охватят все районы области.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.



# MUSHKULLAR OSON BO'LSIN DEB

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

**Oqqo'rg'on tumani yurtimizdagi uzoq o'tmish, boy tarixga ega hududlardan biri sanalib, Sirdaryoning o'ng irmog'i – Ohangaron daryosi vodiysida tashkil topgan. Oqqo'rg'on so'zi «oqish rangli pishiq g'ishtdan qurilgan qo'rg'on», «hokimiyat egalari yashaydigan muqaddas qal'a» degan ma'nolarni bildiradi.**

**1935-yil tashkil etilgan tuman hududi 0,40 ming km<sup>2</sup>, aholisi 112 ming nafarga yaqin. Markazi – Oqqo'rg'on shaharchasi. Tumanda ko'plab korxonalar mavjud. Asosan paxta, g'alla, meva, poliz mahsulotlari, ozuqa ekinlari yetishtiriladi. Shuningdek, chorvachilik, parrandachilik yaxshi rivojlangan. Hududdagi umumta'lim maktablari, kutubxona, muzey, kasalxona, qishloq davolash ambulatoriyalari, turli sport obyektlari aholiga xizmat ko'rsatmoqda.**

Bo'lim shaxsiy tarkibi hududda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida kun-u tun faoliyat olib borib, xizmat intizomi va qonunchilik talablariga rioya etishga doir ko'rsatmalarni o'z vaqtida bajarib kelayotir. Shu bilan birga, xodimlarning jismoniy va jangovar tayyorgarligi, mahorati va hushyorligini oshirish yo'lida amaliy mashg'ulotlar o'tkazib kelinmoqda.

– Jinoyatchilikka qarshi kurashishni yanada kuchaytirish maqsadida keng ko'lamlı chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan, – **deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Ilg'or Turg'unov.** – Asosiysi, mavjud 29 ta mahallada o'g'rilik jinoyati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 foizga, o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish va o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari 50 foizga, yengil tan jarohati yetkazish 57 foizga kamaydi. Qotillik, bosqinchilik va og'ir tan jarohati yetkazish jinoyatlari umuman sodir etilmadi. Yana bir quvonarli jihati, voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan qonunbuzarliklarga yo'l qo'yish holatlari qayd qilinmadi.



Tergov bo'linmasi katta tergovchisi, **mayor Aziz Almetov** jinoyatga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlagan holda, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, fuqarolarda ichki ishlar organlari xodimlari xalqning eng yaqin himoyachisi degan ezgu g'oyani shakllantirish uchun astoydil xizmat qilmoqda.

Mayor A.Almetov xizmat faoliyati davomida 300 ga yaqin jinoyat ishlarini malakali tergov qilishga erishgan. Bu jarayonda, eng muhimi, jinoyatlarni har tomonlama, to'la va xolisona tergov qilinishiga jiddiy e'tibor qaratgan.

Jinoyatni to'liq tekshirib, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash nihoyatda muhim. Shu bois u jinoiy qilmishlarning kelib chiqishiga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish uchun davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga, mansabdor shaxslarga taqdimnomalar kiritishda, jinoiy holatlarni joylarda muhokama qilinishida ham tashabbuskorlik ko'rsatmoqda.



**Mayor Dildora Fayzullaeva** JXX XPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida faoliyat yuritadi. Tizimdagi 16 yillik xizmat faoliyatining besh yilini mazkur lavozimda davom ettirayotgan lavhamiz qahramoni joriy yilda buzilish arafasidagi 50 ga yaqin oilani saqlab qolishning uddasidan chiqdi. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabr ko'rgan 145 nafar

xotin-qizga himoya orderi berilishiga sa'y-harakat ko'rsatdi. Shu bilan birga, probatsiya ro'yxatida turgan 17 nafar ayol bilan muntazam shug'ullanib, ularning mehnatga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ayni chog'da u xotin-qizlar ishtirokida ko'plab tadbirlar o'tkazib, ularga oilaning naqadar muqaddas dargoh ekani va uni asrab-avaylash bo'yicha hayotiy misollar yordamida tushuntirishlar berib kelmoqda.

JXX YPX katta inspektori, **katta serjant Umidjon Bozorboyev** yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashda hamkasblariga o'rnak bo'lib kelmoqda. Joriy yil boshidan beri 900 dan ortiq qoidabuzarliklarni aniqlab, qoidabuzarlarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishini ta'minladi. Hududdagi korxonalar va tashkilotlarda qoidabuzarliklarning oldini olish bo'yicha haydovchilar o'rtasida uchrashuvlar, profilaktik suhbatlar o'tkazmoqda.

O'n uch yillik xizmati davomida viloyatning turli hududlarida faoliyat ko'rsatgan Umidjon o'zining kasbiy mahoratini yanada oshirishga erishdi. Natijada uning fuqarolarga bo'lgan muomala madaniyati, samimiyligi va kezi kelganida g'amxo'rlikidan ko'pchilik mamnun.



**Mixli SAFAROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

# QO'SHSAHIYADA

## FARG'ONA TAJRIBASI

### 861 TA MAHALLA TO'LIQ RAQAMLASHTIRILDI

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda tizimni raqamlashtirish va hududlarni kuzatuv kameralari bilan to'liq qamrab olish orqali jinoyatchilikni sezilarli darajada jilovlashga erishilyapti. Bu borada Farg'ona viloyatida ham katta hajmdagi ishlar amalga oshirilayotganini e'tirof etish zarur.

– 2024-yil viloyat IIB rahbariyati tomonidan «Tizimni raqamlashtirish yili» deya belgilangan edi, – deydi viloyat IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Farruxbek O'sarov. – Shu bois yil boshidanoq har bir rahbar va xodimning jinoyatchilikka qarshi kurashishga bo'lgan qarashi tubdan o'zgardi. Keng qamrovli raqamlashtirish tadbirlarini boshlashdan avval viloyatning ichki obyektlaridagi ilgari o'rnatilgan barcha videokuzatuv moslamalari xatlovdan o'tkazildi. Birinchi bosqichda 2023-yil yakunida «qizil» toifaga kiritilgan 36 ta mahallani to'liq raqamlashtirishga e'tibor berilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda viloyatdagi barcha 1062 ta mahallaga kirib borilib, 6 oy yakuni bo'yicha ulardan 861 tasi to'liq raqamlashtirib bo'lingi.



JXX rahbarining qayd etishicha, ushbu jarayonda jinoyat xavfi yuqori bo'lgan joylarga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 5370 ta eng gavjum ko'cha, 1099 ta choyxona, 9207 ta savdo obyekti, 1136 ta ko'ngilochar maskan va 3640 ta boshqa obyektga jami 12603 ta kamera o'rnatilib, tuman IIB-

dagi situatsion markazlar va profilaktika inspektorlarining xizmat xonalariga integratsiya qilindi.

Raqamlashtirishning samarasi esa shu yilning o'zidayoq yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Masalan, o'tgan davrda viloyatda jami fosh etilgan 1268 ta jinoyatning 700 tasi

bevosita kameralarda qayd etilgan tasvirlar yordamida «issiqizida» ochilgan. Xususan, 411 ta o'g'irlik, 230 ta firibgarlik, 14 ta talonchilik, 6 ta bosqinchilik, 9 ta avtomashinalarni olib qochish holatlari aynan kameralar orqali fosh etilib, qonunbuzarlarga jazo muqarrarligi ta'minlandi.

Hozirda raqamlashtirish ishlari belgilab olingan rejaning 81 foiziga yetkazildi va bu boradagi ishlar yil yakuni-

ga qadar 100 foiz bajarilishi maqsad qilingan.

Ma'lumot uchun aytish joizki, 2020-yil 20-oktabrda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi qoshida avtomatlashtirilgan «102» markazi ishga tushirilgan edi. Zamonaviy texnologiyalar bilan to'liq raqamlashtirilgan va yuqori malakali mutaxassislar ish olib borayotgan ushbu markaz ham bugungi kunda jinoyatchilikni jilovlashda yaxshi samara berayotganini e'tirof etsa arziydi.

## TO'MARIS IZDOSHLARI

### ROBIYA – AKADEMIYA KURSANTI

Farg'ona viloyatida «To'maris izdoshlari» jamoaviy guruhlari namunali tarzda tashkil etilib, kelajakda shu sohada xizmat qilish istagida bo'lgan, eng faol, eng chaqqon qizlar jalb qilindi. Yozyovon tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmasi huzuridagi «To'maris izdoshlari» guruhi a'zosi Robiyaxon Ro'zimatonaning jonsarakligi fikrimizga yorqin misol bo'la oladi.

2005-yilda tug'ilgan Robiyaxon ichki ishlar organlari xodimlariga chin dildan havas qilgani uchun kelajakda shu sohaning fidoyi xodimasi bo'lish maqsadida guruh tarkibiga qo'shilib, xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, podpolkovnik Feruza Ortiqova bilan hamkorlikda juda ko'plab huquqiy targ'ibot tadbirlarida, «xonadonbay» o'rganishlarda faol ishtirok etdi.

Tuman oila va xotin-qizlar bo'limi hamda hamkor tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan 20 dan ziyod turli tadbirlarda faol qatnashib, tengdoshlariga namuna bo'ldi.

Uning sohaga bo'lgan qiziqishi, bilimdonligi, izlanuvchanligi va tirishqoqligi nihoyat o'zining mevasini berdi. Shu kunlarda vazirlikning tegishli tavsiyanomasi asosida IIV Akademiyasiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi.

– Akademiyani muvaffaqiyatli tamomlagach, Farg'onaga qaytib, menga ko'mak bergan ustozlarim bilan bir safda xizmat qilish niyatidaman, – deydi Robiyaxon qat'iyat bilan.

**Suratda:** Robiya viloyat IIB JXX HPB boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Dilshoda O'rinovala bilan.





# FARG'ONA VILOYATI

## EKOSHAHARDA – YANGI HAYOT NAFASI

Farg'ona shahriga shundoqqina tutash adirlıklarda umumiy maydoni 300 gektar bo'lgan Ekoshahar – «Yangi O'zbekiston» massivining qurilishi Farg'onaning qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Shu oyda loyihaning birinchi bosqichi yakuniga yetkazilib, 2 ming 800 xonadondan iborat 75 ta ko'p qavatli uylar qurib bitkazildi. Yil oxiriga qadar yana 1 ming 500 ta xonadonga ega 25 ta 12 qavatli uylarni qurish rejalashtirilgan.

Istiqbolli loyihaga ko'ra, bu yerda yuzlab bolalar maydonchalari va o'yingohlar, 10 ta bog'cha va 6 ta maktab quriladi. 50 gektar maydonda kichik sanoat zonasining ishga tushirilishi hisobiga 20 mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi. Hozirda 2 ta maktab, 1 ta bolalar bog'chasi va oilaviy poliklinika qurib bitkazildi.

70 gektar yerda «Yangi O'zbekiston» bog'i tashkil etilib, «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida 20 xildan ortiq 35 ming tup manzarali

ko'chatlar va gullar ekildi. Aholining maroqli hordiq chiqarishi uchun madaniy-ma'rifiy kecha, ko'ngilochar tadbirlar o'tkazishga mo'ljallangan 4 ming o'rinli amfiteatr va unga uyg'unlik kasb etgan sun'iy ko'lda musiqali favvoralar o'rnatildi. Ichki yo'llarni boshqa hududlar bilan tutashtiruvchi halqa yo'lga bog'lash va jamoat transporti qatnovi bilan bog'liq qulay shohbekatlar barpo etildi, «aqli» svetoforlar o'rnatildi.

Joriy yilning 11–12-iyul kunlari davlatimiz rahbari Farg'ona viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida ushbu shaharchada bo'lib, bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdi va yangi ko'chib kelgan aholi vakillari bilan samimiy suhbatlashdi. Tashrif davomida «Yangi O'zbekiston» bog'i va Ekoshaharning tantanali ochilish marosimi ham tashkil etildi.

– Haqiqatan ham, Ekoshahar bugun tillarda doston bo'lyapti. Mahallamizda hozirgi kunda 750 nafar aholi ro'yxatga olindi va bu raqam-



lar kundan-kunga ko'paymoqda. Chunki har kuni yangi oilalar ko'chib kelishi davom etmoqda. Hozirda massivda 4 ming o'rinli amfiteatr ishga tushirilib, har kuni konsert dasturlari tashkil etilyapti. Tunda musiqali favvorani tomosha qilish va bog'da sayr qilish istagida bo'lgan bir necha minglab yurtdoshlarimiz bu yerga oshiqib kelishmoqda. Shu bois tartib-osoyishtalikni saqlashda bizga patrul-post xizmati xodimlari va milliy gvardiya harbiy xizmatchilari yaqindan yordam berishyapti, – deydi hududda yangi tashkil etilgan «Nurafshon» mahalla fuqarolar yig'ini huquq-tartibot maskani profilaktika inspektori, leytenant Jasurbek Olimov.

Inspektorning qayd etishicha, yangi shaharcha to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, hududga 200 taga yaqin kuzatuv kameralari o'rnatildi. Huquq-tartibot maskanida situat-

sion markaz tashkil qilinib, barcha kameralar shu yerga integratsiya qilindi.

– Yangi shaharchada, yangi patrullik guruhlarini yo'lga qo'yildi, – deydi viloyat IIB Birinchi mintaqaviy hudud saf bo'linmalari PPX otryadi 5-guruh inspektori, safdor Hikmatjon Obidov. – Ayni paytda safdor Muhammadumar O'ktamov bilan birga shu yerda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xizmat olib boryapmiz.

Bir so'z bilan aytganda, «Yangi O'zbekiston» massivini yangi Farg'onaning o'ziga xos yangi timsoli, deya ta'riflash mumkin. Unda bir paytning o'zida sharqona latofat, zamonaviy shaharsozlik va landshaft arxitekturasi an'analari o'zaro uyg'unlashtirilib, tarix so'qmoqlaridan mardonavor o'tib kelayotgan ko'hna kent tobora muhtashamlik va ulug'vorlik kasb etayotir.



### EKSPERT-KRIMINALISTIKA XIZMATI

## XALQARO TAJRIBALAR KENG QO'LLANILMOQDA

**So'nggi yillarda vazirlik rahbariyati tomonidan ekspert-kriminalistika xizmatining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, xodimlarning bilim va salohiyatini yuksaltirish hamda sohaga xalqaro tajribalarni keng joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilyapti.**

– Bugun jinoyatlarni «issiq izida» fosh qilish, ashyoviy dalillarni tezkorlik bilan tadqiq etish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda, – deydi viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi boshlig'i, podpolkovnik Umidjon Xalikov. – Vazirlik rahbariyatining tashabbusi bilan yaqinda Toshkent shahri, Farg'ona, Samarqand, Xorazm va Surxondaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalaridagi ekspert-kriminalistika markazlariga xalqaro

tajribada sinovdan o'tgan va rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan xromato-mass-spektrometr uskunasi olib kelib o'rnatilgani ham fikrimizga misol bo'la oladi.

Markaz rahbarining qayd etishicha, iyun oyida markaz bazasida yangi olib kelingan ushbu zamonaviy uskunani ishlatish borasida o'quv kurslari tashkil etilib, unga xalqaro mutaxassislar va yuqoridagi viloyat mutaxassislari jalb qilingan.



Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Abduvosit SIDIQOV tayyorladi.

Litva Respublikasi Politsiya departamenti komissari Zvironayte Izolda tomonidan olib borilgan o'quv kurslarida soha xodimlarining zamonaviy uskunadan foydalanish borasidagi bilimlari boyitildi.

– Ilgari ashyoviy dalil tariqasida olingan giyohvandlik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibini tadqiq etish va xulosa olish uchun uni poytaxtga yuborardik, – deydi markaz boshlig'i. – Endi ushbu imkoniyat o'zimizda paydo bo'ldi. Hozirda nafaqat Farg'ona viloyatidagi, balki vodiyning uchta viloyati bo'yicha ham tahlillarni shu yerda o'zimiz amalga oshiryapmiz.

## MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARS

**Insoniyat yaralibdiki, uning ma'naviy yuksalishiga beshik bo'lgan, bag'rida olis o'tmish, bugungi tamaddun jarayonlarini namoyon etuvchi ham, shubhasiz, mahalladir. Mahalla – xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonch ko'prigi sifatida xizmat qiladigan, insonni jamiyatning bir qismi bo'lishga o'rgatadigan, uni bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan noyob ijtimoiy tuzilma.**

Jonajon diyorumizda mahallalar juda ko'p bo'lib, ularning o'ziga xos nomlari bizga tarixdan so'zlaydi. Chunki ularda xalqimizning uzoq va shonli tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, madaniy merosi aks etadi. Sharqqa xos madaniyatni o'zida jamlagan mahallalarimiz nufuzini oshirish, mahalla orqali yurtimiz rivoji uchun xizmat qilish eng oliy burchlarimizdan biridir. Prezidentimiz o'z nutqlarida «Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas'uliyat degani. Mahallalar

– dav-

ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni hamda «O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori mazkur tuzilmaning jamiyatimizdagi nufuzini yanada oshirishda muhim dasturilamal bo'lmoqda. Ushbu hujjatlar asosida respublika, viloyat, tuman va shahar mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etildi.

Har

# MAHALLA – QADRIYATLAR MASKANI

latimizning eng katta zamini» deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas.

Keyingi yillarda o'zini o'zi boshqarishning noyob tizimini chinakam xalq vijdoniga aylantirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan bir qatorda, aholi bandligini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga manzilli yordam ko'rsatish, ishsizlarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq keng qamrovli chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalla instituti maqomi mustahkamlandi. Barcha soha va yo'nalishlar bo'yicha «mahallabay» ishlash tizimi joriy qilinib, «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili amaliyotga tatbiq etildi. Oxirgi yetti yilda tizimni takomillashtirishga doir yuzga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat ta'sirchan tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgani ijobiy samara beryapti. Jumladan, mahallalarda tadbirkorlik faoliyati rivojlanib bormoqda. Bu esa yangi ish o'rinlari, doimiy daromad manbalari yaratilishi orqali oilalar farovonligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda «Mahalla instituti»ning jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida

bir fuqarolar yig'inida mahalla yetiligi shakllantirilib, aniq vazifalari, birgalikda qiladigan ishlari belgilab berildi. Barcha mahallalarda «mahalla budjeti» tizimi yo'lga qo'yildi. Eng muhimi, mahallaning aholiga ijtimoiy ko'mak berish borasidagi vakolatlari kuchaytirildi. Endilikda «Temir daftar», «Ayollar daftar», «Yoshlar daftar» orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish va subsidiya ajratish «mahalla yetiligi»ning birgalikdagi qarori asosida amalga oshirilmogda.

Mahalla, avvalo, ma'naviyat, tarbiya beshigi. Bugungi yangilanishlar jarayonida uning ushbu tarixiy xususiyatini asl holicha saqlash va boyitish ham e'tiborda. Bu yo'nalishda «mahalla – maktab» konsepsiyasi asosida ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, targ'ibot ishlari yuritilyapti. «Ota-onalar universiteti» jamoatchilik tuzilmasi faol ishlamoqda. Tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda «Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul» loyihasi amalga oshirilyapti.

Bugungi kunda mahallaga murojaat qilish orqali ko'pgina masalalar-

ga ijobiy yechim topilyapti. Ayniqsa, kundalik hayotimizda muhim o'rin tutadigan, hayot kechirish uchun zarur bo'lgan yo'l, suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa masalalar bo'yicha mahallalar tizimli ish olib bormoqda.

**Shu bilan birga, barcha rahbarlar mahallalarga borib, o'z sohasi bo'yicha aholini qiynayotgan muammolarni o'rganishi va uni joyida hal etishi ham yo'lga qo'yildi. 2024-yilning 1-choragi davomida 3768 ta sayyor qabul o'tkazilib, 59 mingdan ortiq masalalar ijobiy hal etilgan.**

Prezidentimizning 2022-yil 18-martdagi «2022–2026-yillarda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi natijasida o'tgan yili 1 ming 297 ta qishloq va mahallada qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarilgan. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida hududlarda minglab kilometr elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilindi. Joylarda yangi bozorlar va boshqa infratuzilma inshootlari qad rostladi. Ko'chalarga tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi, sug'orish tizimlari yaxshilandi. Bu imkoniyatlar chekka qishloqlarda ham sha-

har-dan kam bo'lmagan sharoit yaratishga, oilalar farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mahallalar obodligini ta'minlashda «Yashil makon» umummilliy loyihasining o'rnini alohida qayd etish joiz. Bu boradagi ishlar tufayli hududlarda bog'-rog'lar, yashil hududlar kengaymoqda. Aholi yashash manzillari kundan-kun chiroy ochib, go'zallikka burkanyapti.

Mahallalarni obod qilish, infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi bunday ishlar mamlakatimiz qiyo-fasini tubdan o'zgartirib, xalqimiz turmush darajasi va madaniyatini yuksaltirishga zamin yaratmoqda. «Mahallabay» tizimi joriy etilgan oxirgi ikki yilda mahallalarda 176 mingta yuridik va 194 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida hokim yordamchilari tavsiyasi bilan qariyb 900 mingta loyihaga 20 trilyon so'm imtiyozli kredit ajratildi. Hokim yordamchilari tomonidan shakllantirilgan 92 mingta mikrolo-yiha ishga tushirilib, 380 mingta ish o'rni yaratildi. Bu raqamlar ortida qanchadan-qancha odamlar, oilalar taqdiri yotibdi. Ana shu ishlar natijasida boqimandalik kayfiyati kamayib, tadbirkorlik muhiti yaratish zavqi kuchayib boryapti. Shu o'rinda mahalla yetiligi tarkibida bo'lgan profilaktika inspektorlari faoliyatini ham alohida e'tirof etish o'rinli bo'ladi. Sababi, ular kecha-yu kunduz olib borayotgan o'z xizmatlari davomida mahallalar osoyishtaligini ta'minlab, jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashib kelmoqda. Buning natijasida juda ko'p mahallalarimiz tom ma'noda jinoyatchilikdan xoli hududga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, xalq muammolarini dastlabki bosqichdayoq yechish imkoniyati oshib, fuqarolar sarsongarchiliklariga barham beriladi.

**O'zbekiston mahallalari uyushmasi bilan hamkorlikda tayyorlandi.**



Mahalla raislari va «yettilik» vakillari ehtiyojmand, kam ta'minlangan, oilaviy sharoiti og'ir xonadonlardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni muntazam ravishda xonadonbay o'rganmoqda va aniqlangan muammolarning yechimini topish choralari ko'rilyapti.

Mahallalarda ijtimoiy daftarlar yuritish orqali aholi muammolarini hal qilish borasidagi ishlar ham kambag'allikni bartaraf etish, oilalarning daromadini oshirishda samara bermoqda.

**Bugungi kunda O'zbekistonda 9 ming 452 ta mahalla faoliyat yuritmoqda. Ularning ko'pchiligida mahalla tarixi aks etgan burchaklar tashkil qilingan. 2020-yildan buyon yurtimizda 22-mart Mahalla tizimi xodimlari kuni sifatida nishonlanadi.**



TOG'LI HUDUDLARDA

## SAMOGA TUTASH QISHLOQLAR

**Hisor tog' tizmalari yon bag'rida joylashgan Shahrisabz tumanida 14 ta tog'li qishloq bor. Ushbu qishloqlardagi 5231 ta xonadonda 26 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi.**

Bu yerdagi tog'li qishloqlarda profilaktik tadbirlarni olib borish, aholi osoyishtaligini ta'minlashda mahalla fuqarolar yig'inlari, Chegara qo'shinlari, O'rmon xo'jaligi va «Hisor» davlat qo'riqxonasi, boshqa sohaviy xizmatlar, xususan, tuman IIB profilaktika xizmati bilan yaqin hamkorlikda ish olib borilmoqda. Bu esa qishloqlarda osoyishtalikni saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda qo'l kelayotir.

Tuman markazidan 82 kilometr uzoqlikda, tog'lar orasida joylashgan Ko'l qishlog'i aholisi 1421 nafar, 280 ta xonadon mavjud. Aholi asosan qir va adirlarda dehqonchilik, bog'dorchilik, qolaversa, chorvachilik bilan mashg'ul.

– Yoz oylarida qishlik oziq-ovqat deysizmi, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyoj mollarini shahardan olib kelamiz. Toqqa qor tushishi bilan yo'llar yopiladi. Ayrim paytlarda qish uzoq davom etib, oziq-ovqat mahsulotlari tugab qoladi. Bu yil ham shunday holat kuzatildi. Bunday paytlarda osoyishtalik posbonlari bizga yordamga kelishadi. Ayniqsa, tuman



Ichki ishlar bo'limi katta tezkor vakili, mayor Ja'far

yo'z faslining har bir kundan unumli foydalanish maqsadida xashak jamg'arish, meva va boshqa ekinlar hosilini yig'ib olish bilan band. Bu yerda olmaning sarxil navlari, zardoli, gilos, olvali yetishtiriladi. Kartoshka va no'xatdan ham yaxshi hosil olinadi.

Qishloq dengiz sathidan 2500 metr balandlikda joylashgan, 5626 nafar kishi istiqomat qiladi. Qishloq ahlining amalga oshirayotgan ishlari ancha salmoqli. Ayniqsa, hududdagi kartoshkazorlar kishi e'tiborini tortadi.

Ammog'on qishlog'i tog'li qishloqlar orasidagi eng kattasi hisoblanadi. Bu yerda sohibkorlar yetishtirayotgan olma, uzum, nok, nashvati, yong'oqlar bozorda eng sara mahsulot qatorida baholanadi.

– Bu qishloqlarda ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan an'analar, urf-odatlar juda qadrlanadi, – deydi mayor Ja'far Sultonov. – Aholi hamjihat, asosiy yumushlarni hashar yo'li bilan bajaradi. To'g'ri, boshqa joylarda bo'lgani kabi, tog'li qishloqlar aholisi orasida ham bilib-bilmay jinoyatga qo'l uradiganlar uchrab turadi. Lekin joriy yilning o'tgan davrida tog'li hududlarimizda bironta jinoyat sodir etilmagani buning tasdig'i bo'ladi.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Sultonov va profilaktika inspektori, kapitan Ulug'bek Rajapovdan juda minnatdormiz. Chunki ular hamisha biz bilan birga. Aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishadi, bilganimizni o'rgatishadi, kezi kelganda yordamlarini ayashmaydi, – deydi «G'ilon» MFY raisi Sa'farmurod Jabborov.

Qishloqda bekorchi odamning o'zi yo'q. Odamlar



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

## INTILGAN MAQSADGA YETADI

**Sayxunobod tumani IIB huzuridagi tergov guruhi tergovchisi, leytenant Jamshid Sadikov ikki yil oldin IIV Akademiyasini tugatib, mazkur tumanda xizmat faoliyatini boshladi.**

– Jinoyatni ochish o'ta murakkab jarayondir, – deydi yosh leytenant Jamshid Sadikov. – Tashqaridan qaraganda, bu jihat ko'zga tashlanmaydi. Lekin qilmishni to'la isbotlab berish, jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilish

Sayxunobodda transformator qismlarini o'g'irlash jinoyatini ochish ishi boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Fermer xo'jaligi dalalaridan biridagi suv nasosini tok bilan ta'minlaydi-

ikkilamchi metall savdosi bilan shug'ullanadigan shaxslarning xonadonini ko'zdan kechirdi. Qidiruv davomida o'nlab yigitlar orasidan ikki nafar gumonlanuvchi aniqlanib, tergov jarayonida ular aybini tan oldi. Biri 22, ikkinchisi 21 yoshda bo'lgan bu yigitlarga maishat uchun pul kerak bo'lib qolgan va eng oson yo'lni tanlashgan. Jinoyat ishi shu tariqa ochildi.

Jamshid Sadikov yosh bo'lishiga qaramay, ustozlarining o'g'itlari, tajriba va bilimlariga



gan elektr qurilmaning kabellari, ichkaridagi qimmatbaho avtomatlar, uzish-ulash qismlari noma'lum shaxslar tomonidan o'g'irlangan. Natijada tuman elektr ta'minoti korxonasiga 11,5 million so'mlik zarar keltirilgan. Fermer xo'jaligi rahbari, ishchilar bilan qilingan suhbat natija bermadi. Jinoyatning izi yo'qolib borardi. Shunda u nafaqat o'g'irlik sodir etilgan mahalla, balki atrofdagi mahallalarda

tayanib, tinimsiz izlanadi. U el-yurt tinchligi, osoyishtaligi yo'lida sadoqat bilan xizmat qilish, ota-onasi orzu qilgandek inson bo'lishni niyat qilgan. Albatta, bu intilishlar samara berib, uning orzulari ushulishiga ishonamiz.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

**Suratda:** Jamshid Sadikov (o'ngda) tuman IIB JXX HPB boshlig'i, katta leytenant Farrux Abdunazarov bilan.

Урок духовности и просвещения

# МАХАЛЛЯ – ОБИТЕЛЬ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

**«С первых дней нашей деятельности мы налаживаем всю работу непосредственно в махалле, вместе с нашим народом... Махалля – самая главная опора нашей страны».**

**Шавкат МИРЗИЁЕВ.**

Испокон веков махалля является обителью взаимоуважения и воспитания, где совместно решаются насущные вопросы ее жителей.

Махалля – объединение людей, для которых важнейшим жизненным принципом является коллективность. Этот институт предусматривает добрососедские отношения, почитание старших, заботу о подрастающем поколении, взаимопомощь. Махалля – образ жизни, уникальная демократическая структура, где реализуется право граждан на самоуправление.

Махалли имеют глубокие исторические корни. В узбекских городах они изначально формировались по производственно-ремесленному принципу, в связи с чем получали свои названия. С

махаллей. Они не ограничиваются кварталами частных домов, а существуют и в группах многоэтажек.

Махалля выступает в качестве органа, обеспечивающего взаимодействие общества и государства. Президент Шавкат Мирзиёев, говоря об усилении системы работы «махаллабай», подчеркнул, что для реализации программ, направленных на решение проблем, волнующих соотечественников, махаллям предоставлены широкие организационные возможности. Более 70 вопросов, в том числе связанных с регистрацией нуждающихся слоев населения, оказания финансовой помощи, субсидий и выделения кредитов, решаются в самой махалле коллегиально. Внедрена система деятельности



махалли в обществе и обеспечению его функционирования в качестве первичного звена решения проблем населения» для эффективной организации деятельности и обеспечения взаимодействия лиц, ответственных за работу «махаллабай», сформированы Республиканский совет по поддержке махаллей, советы по

цинской службы, обеспечением занятости населения, развитием семейного предпринимательства. Благодаря усилиям активистов повышен уровень жизни около 87 тысяч семей, которые перестали считаться малоимущими. В рамках программ «Каждая семья – предприниматель», «Молодежь – наше будущее», «Ремесленничество» в махаллях открываются пекарни, мастерские, швейные, кондитерские цехи. Нуждающиеся граждане обучаются профессиям, востребованным на рынке труда. Отдельная поддержка оказывается в данном направлении женщинам.

Последовательно укрепляется материально-техническая база махаллей. В их деятельность внедряются информационные технологии. Платформы «Женщины», «Молодежный портал» успешно интегрируются в единую систему.

Отдельный аспект – реализация концепции «Благоустроенная и безопасная махалля», укрепление правопорядка на основе системы раннего предупреждения правонарушений. В результате целенаправленной совместной деятельности инспекторов профилактики и общественности из года в год растет количество «зеленых» махаллей.

В центре внимания утверждение среди жителей махаллей атмосферы взаимоуважения, усиление у молодежи чувств патриотизма, трудолюбия, пропаганда высоких нравственных качеств. Этому способствуют созданные при МСГ «Родительские университеты», реализация проектов «Один представитель старшего поколения ответственен за десятерых молодых людей», «Олимпиада пяти инициатив» и др.

Махалля – важнейший институт гражданского общества, обитель духовных ценностей нашего народа.

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.



течением времени их структура менялась, но неизменным оставалось главное – сформированный веками механизм координации социальных отношений.

В современном Узбекистане махалли получили юридический статус. Только за последние годы принято 38 законов и подзаконных актов, усовершенствованы более 50 нормативно-правовых документов, касающихся их деятельности. Построены новые здания для 624 сходов граждан, а реконструировано и отремонтировано – 2265. Возведены махаллинские центры в 102 районах и городах.

В республике около 9,5 тысячи

«махаллинской семерки», состоящей из председателя, помощника хокима, женской активистки, лидера молодежи, инспектора профилактики, сотрудника налоговой службы, социального работника. «Время стремительно меняется. Нам нужно превратить махаллю в институт, который реально решает проблемы людей на местах... Если мы хотим найти решение нынешним вызовам, наш единственный путь – махалля, махалля, махалля и еще раз махалля», – заявил глава государства.

В соответствии с Указом Президента «О мерах по кардинальному повышению роли института ма-

поддержке махаллей Республики Каракалпакстан, областей, города Ташкента и районов (городов), а также Ассоциация махаллей Узбекистана.

Согласно Указу, с 1 марта 2024 года внедрен новый порядок, свободный от бюрократии при предоставлении социальной помощи и выделении субсидий посредством «железной», «молодежной» и «женской» тетрадей. Реализуются меры по установлению общественного контроля за исполнением актов законодательства на территории махаллей, в том числе за соблюдением норм в сферах образования, меди-



# QANOT YOZGAN ORZULAR

**Mayor Noila Umarxanova 1991-yil Namangan viloyatining Norin tumanida tugʻilgan. 2013-yilda IIV Akademiyasini tamomlagan. Faoliyatini xuddi shu yili Namangan shahar IIOFMB huzuridagi Tergov boʻlimining ish oʻrganuvchi tergovchi lavozimida boshlagan. Ayni vaqtda tergovchi lavozimida xizmat qilmoqda.**



Norin tumanidagi 14-sonli maktab-internatda tahsil olgan Noilada ichki ishlar organlari xodimasi boʻlish istagi oʻquvchilik kezlari uygʻongan.

Nihoyat orzusiga erishdi. IIV Akademiyasiga qabul qilinib, tinglovchilar safidan oʻrin oldi.

Oʻqish davrida Noila tergov boʻlimiga birinchi kirgandayoq mehr qoʻydi. Har yilgi amaliyotni tergov sohasiga olib, oʻqishni ham tergov yoʻnalishi boʻyicha tamomlaydi.

– Toʻgʻri, tergovchilik oson kasb emas, – deydi Noila, – chunki fuqaroni savol-javob qilarkansiz, sizning qaroringiz ortida uning butun bir taqdiri turadi. Shu bois xolisona,

adolatli, ikki tomonni ham tinglab qaror qabul qilish lozim. Bu esa oson emas, albatta...

Noila ustozlari koʻmagida kasb sirlarini oʻrganib bordi. Hali hanuz chigal vaziyatlarga duch kelsa, ustozlaridan maslahat soʻrashga tortinmaydi.

Ichki ishlar organi xodimlari kuni uning oilasida alohida bayram sifatida nishonlanadi. Bunga sabab ikkita: birinchidan, er-xotin shu sohada xizmat olib boradi. Ikkinchidan, shu kuni ish yuzasidan boʻlgan muloqot boʻlajak turmush oʻrtogʻi bilan taqdiri bogʻlanishiga sabab boʻlgan.

– 2014-yili oʻgʻirlik jinoyatini tergov qilish jarayonidagi ayblanuvchi shaxs turmush oʻrtogʻim xizmat olib boradigan hududda yashaydigan fuqaro boʻlgan, – deydi Noila. – Turmush oʻrtogʻimning telefon raqamiga qoʻngʻiroq qilib, «iltimos, shu fuqaro sizning hududingizda yasharkan, uning tergovga kelishini taʼminlab bering», deb murojaat qilganman. Ochigʻi, turmush oʻrtogʻim tergovchilarni oʻta jiddiy, buyruqboz, hatto biroz qoʻpol ham deb oʻylarkan.

Mayor Saidakbar Umarxanov koʻnglini avval onasiga ochadi, Noilaning ish manzilini berib, qabuli-

ga kelgan fuqaro sifatida uchrashib, gaplashib koʻrishini aytadi.

Saidakbarning onasi Noilaning qabuliga borgan kun 25-oktabr sanasi edi. Qiz unga juda maʼqul boʻladi. Saidakbarga onasi qizning, ayniqsa, qoʻllarini koʻksiga qoʻyib, eshikkacha kuzatib qoʻygani yoʻqib tushganini, xizmat paytida ham ayollik tavozei va latofatini yoʻqotmaganiga havasi kelganini alohida taʼkidlaydi. Shundan soʻnggina Saidakbar Noila bilan doʻstona gaplashib yurib, keyin oila qurishadi. Bugungi kunda ularning uch nafar farzandi – Saidolim oʻgʻli hamda Mehribonu va Mohinur ismli qizaloqlari bor. Mayor Saidakbar Umarxanov ayni vaqtda Uychi tumani IIB JQBda tezkor vakil sifatida faoliyat yuritmoqda.

– Turmush oʻrtogʻim ham ichki ishlar organi xodimi boʻlgani sababli, ish va oila yuzasidan muammolarga duch kelmaganman, u kishi doim meni qoʻllab-quvvatlaydi, vaziyatlarini toʻgʻri baholaydi, – deydi mayor Noila Umarxanova. – Qolaversa, xuddi onam kabi mehribon qaynona-onajonim haligacha bilmaganimni oʻrgatib, yaxshimni oshirib, yomonimni yashirib keladi.

Noila dam olish kunlarini farzandlari bilan oʻtkazadi. Ular bilan birgalashib dars tayyorlaydi, kitoblar oʻqib beradi, shirindan-shakar yeguliklar pishirib beradi.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
**oʻz muxbirimiz.**

*Namangan viloyati.*

## JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

# NAZARIYA VA AMALIYOT UYGʻUN BOʻLSA...

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentida vazirlikning Malaka oshirish instituti kasbiy tayyorgarlik fakulteti tinglovchilarining ish oʻrganish amaliyoti oldidan yoʻriqnoma yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Tadbirda tinglovchilar, ularga birlashtirilgan murabbiylar va mazkur taʼlim muassasasining oʻqituvchi-pedagoglari ishtirok etdilar.

Yigʻilishni Departament boshligʻining oʻrinbosari, polkovnik G. Kurambayev kirish soʻzi bilan

ochib, tinglovchilarning olgan nazariy bilimlarini amaliyot davrida mustahkamlashi, koʻnikmalarini



oshirib borishlari kelgusi faoliyatlarida oʻta muhimligi xususida toʻxtalib oʻtdi. Shuningdek, ularning qonuniylik va xizmat intizomiga hamda tasdiqlangan kun tartibiga qatʼiy rioya qilishlari zarurligi haqida gapirib, masʼul va murabbiylar oldiga bir qator vazifalar qoʻydi.

Yigʻilish yakunida tinglovchilar malaka amaliyoti bilan bogʻliq oʻzlarini qiziqtirgan barcha savollarga mutasaddilardan javob oldilar.

**Shahrizod SHOKIROV,**  
**kapitan.**



«PARIJ-2024»

# OLIMP CHO‘QQISINI KO‘ZLAB

**Fransiyaning Parij shahrida XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta‘minlash boshqarmasi inspektori, kichik serjant Islom Bahromov ham ishtirok etadi.**

U yunon-rum kurashi bo‘yicha uch karra Osiyo chempioni, Serbiyada o‘tkazilgan jahon chempionati sovrindori. So‘nggi bellashuvlarda lavhamiz qahramoni 60 kilogramm vazn toifasida yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish uchun yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Oqdaryo tumanida tug‘ilib, o‘sgan Islomning sportga ishtiyoqi yoshligidan boshlangan. Otasi uni yunon-rum kurashi seksiyasiga boshlab borgan. 2008-yildan 2014-yilgacha Respublika olimpiya zaxiralari kollejida tahsil olgan. 2018-yilda ushbu ta‘lim maskanini tamomlab, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetga o‘qishga kirdi. 2020-yilda hayotini ichki ishlar organlaridagi xizmat bilan bog‘lashga qaror qildi. Uning

asosiy vazifasi mehmonlar va sayyohlar xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

Islomning aytishicha, xodimning hayotida sport egallagan kasbining ajralmas qismidir. Faqat sportgina sog‘lom ruh, kuchli xarakter, yengilmas iroda, qat‘iyat va g‘alaba sari intilishni saqlashga yordam beradi. Bu fazilatlar osoyishtalik posbonlarining xizmat kunlarida katta rol o‘ynaydi.

Biz bilan suhbat chog‘ida sportchi o‘z muvaffaqiyatlari haqida o‘rtoqlashdi va ilk g‘alabasi haqida gapirdi.

Lavhamiz qahramoniga Parijda bo‘lib o‘tadigan yozgi Olimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyat va yangi g‘alabalar tilab qolamiz.

**Zamira BOLTAYEVA,**  
o‘z muxbirimiz.

*Samarqand viloyati.*



QAROR VA IJRO

## TUN-U KUN KO‘MAKKA SHAY

**Davlatimiz rahbarining joriy yil 10-maydagi «Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq Navoiy viloyatida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, joriy yilning 1-iyunidan viloyatning barcha shahar va tumanlaridagi markaziy shifoxonalarning shoshilinch qabul bo‘limlarida birlamchi ko‘mak xonalari tun-u kun faoliyat olib bormoqda.**

Bu yerga asosan jismoniy, ruhiy va jinsiy tazyiq sabab tegishli organlarga murojaat qilgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlari olib kelinib, uch kun mobaynida tibbiy, psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatiladi. Shu muddat ichida ular tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxs bilan murosaga kelishsa, birlamchi ko‘mak xonalaridan chiqishga ruxsat beriladi.

Aks holda esa hududiy profilaktika inspektori hamda mahallaning xotin-qizlar faoli tomonidan holat 24 soat ichida o‘rganilib, huquqiy baho beriladi. Jumladan, ularga nisbatan himoya orderi rasmiylashtiriladi, qonunbuzarga nisbatan chora ko‘riladi, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari «Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika mar-

kazi»ning hududiy bo‘limlariga joylashtiriladi.

Bu yerda xotin-qizlarga va ularning voyaga yetmagan farzandlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan hamkorlikda ijti-

moy-moddiy ko‘mak ko‘rsatiladi. Shuning barobarida ularni kasbga o‘qitish, ish bilan ta‘minlash hamda farzandlarini tarbiyalashda ko‘mak ko‘rsatiladi.

Yaqinda Karmana tumani «Katta machit» mahallasida istiqomat qiluvchi S.R turmush o‘rtog‘i va qay-

nonasining jismoniy-ruhiy tazyiqlari sabab birlamchi ko‘mak xonasiga keltirildi. Uch kun davomida u bilan tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori, mutaxassis navbatchi shifokor hamda psixolog profilaktik suhbatlar olib borishdi.

Natijada undagi ruhiy zo‘riqish holatini bartaraf etishga muvaffaq bo‘lishdi. Bundan tashqari, mutasaddilar tomonidan ayolning eri va qaynonasi chaqirtililib, notinchlik sabablari va omillari muhokama qilindi. Shuningdek, ushbu holat yuzasidan himoya orderi rasmiylashtirilib,

oilaviy janjallar, otaning onaga nisbatan tazyiqi kelajakda farzandlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir etishi tushuntirildi.

Birlamchi ko‘mak xonasining afzalliklaridan yana biri shundan iboratki, bu yerda xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari kunning qaysi payti bo‘lishidan qat‘i nazar, shoshilinch qabul bo‘limi shifokori tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi hamda ularga ruhiy-psixologik ko‘mak ko‘rsatiladi.

**Gulbahor USAROVA,**  
podpolkovnik.  
**Mahliyo XOLOVA,**  
o‘z muxbirimiz.

*Navoiy viloyati.*



■ Самаркандская область

## СДЕЛАТЬ ПРАВИЛЬНЫЕ ВЫВОДЫ

**С начала года в Акдарьинском районе прошло восемь выездных судов. По итогам в отношении 8 граждан, состоящих на учете службы пробации, мера наказания была ужесточена, к 102 поднадзорным применено условно-досрочное освобождение от отбывания наказания.**

Один из последних выездных судов прошел в минувшую субботу. Здесь параллельно проходил выездной прием с участием руководителей правоохранительных органов. Рассмотрены обращения 300 граждан. Большинство из них разрешены на месте.

Состоялась также встреча с молодыми людьми, находящимися под надзором подразделения пробации. Отмечено, что цель службы пробации – создание условий для того, чтобы человек повторно не совершил ошибку, содействие ли-



цам, осужденным к наказанию, не связанному с лишением свободы, в социальной адаптации,

сокращение рецидивной преступности.

По мнению старшего инспектора группы проба-

ции Акдарьинского РОВД капитана Элёра Жабборова, пробация – это предоставляемая осужденному

возможность осмыслить свое поведение и сделать выводы.

По данным группы пробации Акдарьинского РОВД, в районе под надзором находятся 383 человека. Среди состоящих на учете 21 женщина, 79 молодых людей.

Как только человек решением суда «попадает» в службу пробации, сотрудники проводят с ним беседу, в ходе которой узнают о состоянии его здоровья, социальных проблемах. Также разъясняются его права и обязанности, порядок отбывания наказания, составляется индивидуальная программа оказания социально-правовой помощи и план надзора.

Соб. корр.

■ Хорезмская область

## ПРЕДУПРЕЖДЕН – ЗНАЧИТ ВООРУЖЕН

**В целях профилактики рисков, исходящих от интернета, в городе Хиве проведено пропагандистско-разъяснительное мероприятие.**

Его организаторами выступили Оперативно-розыскной департамент, Центр кибербезопасности Министерства внутренних дел, отдел кибербезопасности Хорезмского областного УВД.

На мероприятии был отмечен рост количества преступлений, совершаемых посредством компьютерных технологий, а также призвали пользователей социальных сетей

быть бдительными, не доверять подозрительным SMS-сообщениям, не раскрывать персональные данные, в том числе коды пластиковых карт.

В рамках месячника проводятся десятки конкурсов, ориентированных на определенную категорию людей или сферу деятельности. В частности, в конкурсе «Самая активная махалля» участвуют махаллинские



семерки, в конкурсе «За безопасное пользование интернетом» соревнуются лица с ограниченными возможностями. Блогеры и журналисты участвуют в конкурсе «Самый лучший национальный контент» по подготовке материалов, предупреждающих население о киберугрозах.

Конкурс «Совместно противостояем киберпреступности!» объединяет команды руководителей секторов городов и районов области. Студенты принимают участие в

соревнованиях по киберспорту под девизом «Мы против киберпреступности!».

Члены мобильной пропагандистской группы побывали в гостиницах города, государственном музее-заповеднике «Ичан-кала», где провели разъяснительную работу среди туристов. Рекомендовано подписаться на страницы «Cyber102» Центра кибербезопасности в социальных сетях.

Бекзод КАРИМОВ,  
капитан.

## ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

Истеъфодаги полковник Шухрат Исҳоқхўжаев ўттиз йил ички ишлар органи тизимида ишлаган. Фаолиятини ИИБ Молия-режалаштириш бўлимида бошлаб, Молия-иқтисод бошқармасида раҳбарлик лавозимларида хизмат қилган. Соҳани такомиллаштиришда ўз ҳиссасини қўшган. Ҳалол хизматлари натижаси ўлароқ, «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган иқтисодчи» фахрий унвони билан тақдирланган.

## УСТОЗ ҚОЛДИРГАН ИЗ

– 1982 йилдан буён бир-биримизни яхши танир эдик, – дея эсга олади ҳамкасбларидан бири, «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган иқтисодчи» фахрий унвони соҳиби, истеъфодаги полковник Ўткир Аҳмедов. – Мустақилликнинг дастлабки йиллари иқтисодий ислохотларнинг ривожланишида алоҳида ҳиссаси бўлган. Масъулиятли, интизомли, садоқатли, фидойи ходим эди. Ишидан шунчалар завқ олардики, чарчоқ нималигини билмасди.

Истеъфодаги полковник Шухрат Исҳоқхўжаев кўплаб шогирдлар етиштирган. Хусусан, истеъфодаги полковниклар А. Шоҳасанов, М. Гизатулин,

подполковниклар Р. Рўзматов, Б. Нормуродов, В. Макаровлар, ҳозирда раҳбарлик лавозимида хизмат қилаётган полковниклар Алишер Абдуллаев, Миралишер Миркомилловлар доимо уни миннатдорлик билан эслашади. Яна кўплаб шогирдлари ички ишлар органлари ходимларини моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қувватлашда, эл-юрт осойишталигини сақлашда ўз фаолиятларини олиб бормоқда.

Шухрат Исҳоқхўжаев турмуш ўртоғи Зарофат ая билан беш нафар фарзанд – уч қиз ва икки ўғилни бир-бирига меҳр-оқибатли, илмли ва билимли, она Ватанимизга садоқатли фарзандлар қилиб тарбиялашди.

– Одатда, ҳаётда омади юришган аёллар ортида кўпинча тоғдек суянч бўлган оталари туради, – дея хотираларини биз билан бўлишади ИИБ М ва ФРББ МТБ инспектори, подполковник Шарофат Набиҳўжаева. – Бугун мен ҳам нимагаки эришган бўлсам, барчаси отамнинг далдаси, қўллаб-қувватлаши, ишончи туфайлидир.

Кенжа қизи – Тошкент шаҳар ИИББ Молиявий таъминот хизматида бош муҳандис-иқтисодчи, подполковник Лазокат Баҳодирова: – Отам ҳақида жуда кўп гаплар гапиргим келади. Аммо доим бўғзимга нимадир қадалади, дилимдагилар тилимга кўчолмайди. Бир шоирнинг мана бу сатрлари менинг дардим, менинг айтолмаганларим...

Оталар ўлмайди, улар шунчаки, Кўчиб ўтадилар бошқа маконга. Баланд иморатлар қурашлар балки, Бизни келади деб Улуғ маҳшарга.

Оталар ўлмайди, улар шунчаки, Узоқ сафарларга шайланадилар. Дастурхон бошида ҳар кунгидаги, Бир ҳовуч дуога айланадилар.

Оталар ўлмайди, нигоҳларини, Елкамиз ортидан сезиб турамиз. Тушларга жим келиб кетишларини, Болаларимизга айтиб юрамиз...

Оталар ўлмайди ҳар куни, ҳар он, Хаёлларимизда туради тирик!



– Отамнинг табиатлари жудаям юмшоқ эди, ҳеч қачон бизни қаттиқ уришмаган, – деб эслайди катта қизи истеъфодаги подполковник Хайринисо Мирзааҳмедова.

– Инсоннинг орзулари, келажакда ким бўлиши, ҳаётда муносиб ўрин эгаллаши, одатда у улғайган муҳитга боғлиқ бўлади, – дейди ўғилларидан бири истеъфодаги подполковник Муродхўжа Исҳоқхўжаев. – Ҳаммамиз ота изидан кетдик ва ҳеч қачон бундай афсусланмаганмиз.

– Ўйлаб кўрсам, отам ҳаётлигида ҳали улғаймаган эканман, уйланган, бола-чақали бўлсам ҳам... – дейди катта ўғли Шавкатхўжа. – Олдинлари мен хизмат вазифам туфайли оиламдан узоқда бўламанми, уйга кеч қайтаманми, фарқи йўқ, орқамда отам борлигини ҳис қилиб турардим.

Лавҳамиз қаҳрамони ҳозирда орамизда йўқ, лекин унинг ишини фарзандлари ва шогирдлари давом эттиришмоқда.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,**  
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.



## ЖИНОЯТ МУҲОКАМАСИ

Пойтахтимизнинг Чилонзор туманидаги савдо мажмуаларининг бирида сотувчи ва харидор ўртасидаги келишмовчилик натижасида муштлашув келиб чиққан. Мазкур ҳуқуқбузарлик юзасидан жамоатчилик муҳокамаси ўтказилди. Унда Тошкент шаҳар ИИББ масъул раҳбарлари, савдо мажмуаси раҳбарияти, маҳалла фаоллари, тадбиркор, сотувчи ҳамда жамоатчилик вакиллари иштирок этишди.

Ўзаро келиша олмай қолган шахслар воқеа тафсилотларини келтириб ўтишди. Маълум бўлишича бир-бирига нисбатан ҳурматсизлик оқибатида ушбу кўнгилсиз ҳодиса содир бўлган. Муҳокамада сўзга чиққан масъуллар, маҳалла фаоллари ва фуқаролар фикр билдира туриб, бу ҳолат халқимизга хос бўлмаган хунук иллатлардан бири эканлиги, бундай пайтда муштумзўрлик қил-

масдан, босиқлик билан, қонунларимизга кўра ҳаракат қилиш лозим эканлиги айтиб ўтилди.

Ана шундай муҳокамалардан яна бири Миробод туманида бўлиб ўтди. Ушбу ҳолатда кўчада кетаётган икки фуқаро бир-бири билан гап таллашиб қолиши оқибатида жанжаллашиб кетишган. Орани очик

## МУШТУМЗЎРЛИК

қилиш учун икки тарафдан бир неча нафар шахс муштлашади. Энг аянчлиси, улардан бири иккинчи тарафдаги йигитнинг сон қисмига ўткир тиғли жисм билан жароҳат етказди. Жабр кўрган фуқаро чап сон соҳаси санчилик кесилган жароҳати билан шифохонага мурожаат қилади.

Муҳокамада жамоатчилик вакиллари, маҳалла фаоллари ва фуқаролар жамоат тартибини бузиб, аҳоли орасида ваҳима кўтарган ва атрофдагиларга нисбатан ҳурматсизлик кўрсатиб, безорилик қилган шахсларнинг хатти-ҳаракатини қоралаб, танқид қилди. Мазкур ҳолат юзасидан Жиноят кодексининг тегишли моддаси билан жиноят иши кўзғатилиб, тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Халқимизда: «Бир кунлик жанжал қирқ кунлик ризқни олар» деган пурмаъно мақол бор. Шундай экан, жанжалдан не наф. Аксинча бу дилхираллик олиб келади ҳамда муштумзўрга ва унинг яқинларига зарар келтиради, холос.

**Сарвар СОБИРОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.





UCHINCHI SEKTORDA

# MUAMMOLAR

## bosqichma-bosqich hal etilmoqda

**Sharifjon Boltiboyev**  
Chortoq tumani «Chig'atoy» mahallasida istiqomat qiladi. U bolalikdan nogiron, farzandlarida ham nogironlik qayd etilgan. Ayoli uy bekasi, ishsiz. Nurab, yaroqsiz holga kelib qolgan bir xonali uyda oila uzoq yillardan buyon yashab kelayotgan edi.

Chortoq tumani 3-sektor rahbari, IIB boshlig'i, podpolkovnik Ravshanbek Usubjonov xonadonma-xonadon o'rganishlar chog'ida bu oilaning yashash sharoitini o'rgandi va yangi uy qurish uchun amaliy harakatlar boshlab yubordi. Ko'p o'tmay yangi, zamonaviy qiyofaga ega uch xonali xonadon qurib berildi.

Sektor hududida joylashgan 15 ta mahalladagi muammolar bosqichma-bosqich hal etib borilmoqda. Ayniqsa, kam ta'minlangan, ehtiyojmand fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, joriy yil boshida 1374 nafar xotin-qiz «Ayollar daftari»ga kiritilib, ulardan 1020 nafarining muammolari hal etildi, 851 nafarining bandligi ta'minlandi. 69 nafar boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand oilalarning muammolari hal etilib, 61 nafar ijtimoiy yordamga muhtoj I, II guruh nogironlariga tibbiy ko'mak berildi, 36 nafar qaramog'ida nogiron farzandi bor ehtiyojmand xotin-qizlarga yordam ko'rsatildi.

Olti oy davomida 148 nafar o'g'il-qiz «Yoshlar daftari»ga kiritilib, ulardan 78 nafarining muammolari hal etildi. 45 nafariga kontrakt to'lovi amalga oshirib berildi. 4 nafari kasb-hunarga

o'qitildi. 3 nafariga haydovchilik guvohnomasi to'lov mablag'lari to'lab berildi, yana shunchasiga yer ajratildi. 9 nafariga mehnat qurollari xarajatlari qoplandi.

Mahallalar obodligi, farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar ham e'tirofqa loyiq. Yaroqsiz yo'llar ta'mirlandi, qabristonlar hashar yo'li bilan tozalandi. Markaziy ko'chalar chiqindilardan tozalandi, begona o'tlardan tozalov hamda sug'orish ishlari tuman obodonlashtirish boshqarmasi ishchilari tomonidan amalga oshirildi. «Saroy» MFY hududidagi ko'cha yoritish chiroqlari ta'mirlandi.

«Toza hudud» DUK tomonidan aholi xonadonlaridan chiqqan maishiy chiqindilar maxsus joylarga olib chiqib tashlanishi yo'lga qo'yilgan. Bu esa atrof-muhitni musaffo saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

– Mahallalarda hayot qizg'in davom etmoqda. Fuqarolarda mas'uliyat hissi ortgan. Tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochilgani aholining turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda, – deydi Chortoq tumani IIB HPB IPG katta inspektori, mayor Dilmurod Abdurahmonov. – Murojaat qilgan fuqaroning savoli javobsiz qolmaydi. Barcha muammolar bosqichma-bosqich hal etilmoqda.

Sektor mahallalarida toza ichimlik suvi tarmog'i tortish ishlari ham jadal sur'atlarda olib borildi. Nosozlari ta'mirlandi, suv taqsimlagichlar soz holatga keltirildi.

Hududda bu boradagi ishlar davom etmoqda.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



**Azat (ismlar o'zgartirildi) o'zining o'ttiz ikki yillik hayoti davomida ikki marotaba qilmishlari uchun jinoiy jazoga tortildi. Ammo bundan tegishli xulosa chiqarmadi, shekilli, yana jinoyatga qo'l urdi.**

Oldingi qilmishi uchun axloq tuzatish jazosini o'tab yurgan Azat bir kuni «Facebook» ijtimoiy tarmog'i orqali Sarvinoz ismli qiz bilan tanishib qoldi. Dastlab shunchaki tanishuv asnosida boshlangan munosabatlar keyinchalik do'stlikka aylandi. Azat qizning ishonchiga kirishga ulgurgan, hatto turli masalalarda unga maslahatlar berib turardi. Onlayn muloqotlarning birida esa uddaburon yigit hali uylanmaganini, huquqni muhofaza qilish idoralardan birida ishlayotgani tufayli bunga vaqt topa ol-

**Ehtiyot bo'ling: firibgar!**



mayotganini aytib, agar qandaydir «iltimos» va «muammolari» bo'lsa, bemalol hal etishga yordam berishini qistirib o'tdi. Uning bu so'zlari qizga o'zgacha ta'sir qilib, ijtimoiy tarmoqda unga yanada bog'lanib, deyarli har kuni gaplashadigan bo'lishdi.

Kunlardan birida Azat Sarvinozga xohlasa oliy ta'lim muassasasiga ishga joylashtirib qo'yishini, buning uchun 1000 AQSH dollari miqdorida pul zarurligini ta'kidlaydi. Hatto ushbu pullardan 3 million 500 ming so'mini olishga ham erishadi. Keyinchalik, ushbu masala hal bo'l-

masdan turib, yana qizni aldashga kirishadi. Bu safar Sarvinozga jiyani oliygohga o'qishga kiritishga va'da berib, buning evaziga 15 mln so'm pul talab qiladi, uning 7 millionini olishga ham ulguradi. Oradan yana ma'lum muddat o'tgach esa, qizning 5 million so'm pulini o'zining bank plastik kartasiga o'tkazib, shaxsiy ehtiyojlari uchun ishlatib yuboradi.

Har qanday yolg'on kuni kelganida fosh bo'lishi aniq. Azatning va'dalari ham vaqt o'tgani sari yolg'on ekani oydinlasha bordi. Shunda Sarvinoz uning xatti-harakatlari yuzasidan ichki ishlar organiga murojaat qildi...

Tergov jarayonlari va sud majlisi davomida Azatning aybi to'liq isbotini topib, unga keltirilgan zararni to'liq qoplash bilan birga, tegishli jazo chorasi tayinlandi.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

## Ветераны — наша гордость

Т. Косимов служил начальником следственного отделения Асакинского, Избасканского РОВД, начальником следственного отдела Андижанского ГОВД, заместителем начальника Организационного управления УВД, начальником Информационного центра, руководителем ОБВИГ, начальником Ходжабадского РОВД. В 2010 году вышел на заслуженный отдых.

За годы службы подполковник воспитал ряд достойных учеников, таких как полковник Бахтиёр Жалолов, подполковники Нозимжон Парпиев и Шукурулло Намидинов.

С 2017 года работал заведующим Народной приемной в Балычинском районе, последние два года руководит Народной приемной в Андижанском районе.

По стопам Тухтасина пошел и его младший брат — подполковник Нодирбек Косимов, который служит старшим оперативным дежурным второго отдела внутренних дел УКД ОВД города Андижана. Сыновья ветерана, Эльдор и Сардор, — инспекторы ДПС УБДД УВД Андижанской области. Эльдор сержант, Сардор рядовой.

Тухтасин ака вместе с супругой Сайёрой воспи-

# ПО-ПРЕЖНЕМУ В СТРОЮ

Подполковник Тухтасин Косимов в 1986 году после окончания Высшей школы МВД был назначен следователем следственного отдела УВД Андижанской области. Его учителями в период становления были подполковник, ныне председатель Комитета Сената по вопросам обороны и безопасности, генерал-майор в отставке Кутбиддин Бурханов и подполковник Тулкун Мирзаабдуллаев. Молодой сотрудник перенял у них такие качества, как воля к победе, целеустремленность, решимость всегда доводить начатое дело до конца.



тали двух сыновей и двух дочерей. В большой семье Косимовых 7 внуков.

— Всякое бывало в жизни, но стремление идти вперед всегда помогало, — говорит ветеран.

— Тухтасин Косимов частый гость в подразделениях УВД, — рассказывает председатель ветеранской организации подполковник в отставке Давронбек Юсупов. — Он

встречается с молодыми сотрудниками, рассказывает им о годах службы, делится опытом, призывает молодежь служить честно, быть верными присяге.

— Когда мы выходим на пенсию, у многих из нас появляется новое дело — воспитание внуков. Мы учим их не математике и письму, а как быть настоящим человеком. Это действительно бесценно. Так же и у ветеранов МВД: они защищают правопорядок, а когда уходят на заслуженный отдых, начинают новую работу — передают новым поколениям сотрудников знания, которые не даст ни один вуз, — говорит Тухтасин ака.

Ветеран убежден, если человек берется за что-то, то должен делать это максимально хорошо. Тухтасин ака творческая натура. В свободное время он пишет статьи в местные газеты, увлекается чтением книг, любит музыку и сам неплохо играет на ругабе.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.

**На снимке:** Тухтасин Косимов с капитаном Сайдулло Мамадалиевым и старшим лейтенантом Мухриддином Халиловым. Андижанская область.

## ВСТРЕЧА С МОЛОДЕЖЬЮ

В махалле Шаффоф Музrabатского района Сурхандарьинской области состоялось очередное мероприятие с представителями молодежи и подростками — подшефными ЭКЦ областного УВД. На этот раз оно было организовано в форме выставки криминалистической техники, аналитического оборудования. Была представлена и передвижная экспертно-криминалистическая лаборатория, предназначенная для выездов сотрудников на места производства следственных действий с целью осмотра, изъятия и исследования вещественных доказательств.



О тонкостях криминалистической деятельности, ее возможностях ребятам рассказал начальник ЭКЦ УВД области подполковник Жасур Пардаев и его коллеги.

— Такие встречи вызывают неподдельный интерес у молодежи, формируют у них уважение к профессии стража правопорядка, — говорит начальник ОВД района подполковник Уткир Шукуров.

**Фарход ТОШБОЕВ,**  
подполковник.



HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

## OTA KASBINI ARDOQLAB...

**Huquqbuzarlikdan jinoyatgacha masofa qancha? Bir qadam. Negaki, huquqbuzarlik sodir etgan shaxs pora har qanday mushkulotni hal qila oladi, deb o'ylasa, noto'g'ri tashlangan bitta qadam bilan, albatta, jinoyatga qo'l uradi.**



Yakkabog' tumanida yashovchi X.B. Shahrisabz shahri «Pillakashlik» mahallasi hududida «Lacetti» rusumli avtomashinasini mast holda boshqarib kelayotganida Shahrisabz shahar IIB YHXB inspektori, safdor Sarvar Pirmanov tomonidan to'xtatiladi. Tabiiyki, holat bo'yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, avtoulav jarima maydonchasidan joy oladi.

Bu huquqbuzarlikni pul bilan hal etishiga ishongan haydovchi ertasi kuni YHXB boshlig'i, mayor Farhod Yangiboyevga uchrashadi. Suhbat davomida u huquqbuzarligiga chora ko'rmaslik evaziga 500 AQSH dollari pora taklif etadi. Bunga javoban mayor pora berish va olish jinoyat ekanini haydovchiga tushuntirsa-da, u unamaydi.

Hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirida fuqaro X.B. Shahrisabz shahar IIB YHXB ma'muriy binosida mayor F. Yangiboyevga taklif qilgan pulni pora tariqasida bergan vaqtda

ushlandi. Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Toshkent Avtomobil va yo'llar institutini 2002-yilda tugatgan Farhod Yangiboyev ota kasbni ardoqlab kelmoqda. Uning otasi, marhum Butun Yangiboyev 31 yil tizimda oddiy xodimlikdan IIB boshlig'i lavozimigacha bo'lgan sharafli yo'lni bosib o'tgan. Sakkiz nafar farzandlar orasida Farhod ota kasbni tanlagan.

Ichki ishlar organlarida qariyb yigirma yildan buyon xizmat qilib kelayotgan Farhod Yangiboyev ilk xizmat faoliyatini viloyat IIB YHXB AYPXB 2-otryadi YPX katta inspektori lavozimidan boshladi. So'ngra Qamashi tuman IIB YHXB katta inspektori, boshqarma AYPXO 2-otryadi komandiri, Chiroqchi tumani IIB YHXB boshlig'i lavozimlarida samarali xizmat qildi. Ayni vaqtda hozirgi lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Qashqadaryo viloyati.*

USTOZ – SHOGIRD

## «UNDAN UMIDIMIZ KATTA»

**Ichki ishlar organlarida bilimli, intiluvchan, berilgan har bir topshiriqni a'lo darajada uddalaydigan xodimlar bisyor. Ana shunday salohiyatli kadrlardan biri Mirobod tumani IIOFMB TQX Jinoyat qidiruv bo'limi tezkor-texnik ishlov guruhi katta mutaxassisi, kapitan Shovqiddin Norqobilovdir.**

U sohadagi faoliyatini 2017-yili Mirobod tumanida profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. So'ngra o'zini ekspert-kriminalistika yo'nalishida sinab ko'rishga qaror qilgan.

Ikki yildan buyon ustozim – podpolkovnik Farhod Miralimov Jinoyat qidiruv yo'nalishida malaka va ko'nikmalarimning oshishida o'z maslahatlarini ayamayapti, – deydi Sh. Norqobilov.

Podpolkovnik Farhod Miralimov tuman IIOFMB TQX Jinoyat qidiruv bo'limi Qidiruv ishini ta'minlash bo'linmasi boshlig'i. U qariyb 29 yillik tajribaga ega inson, ko'plab shogirdlarga yo'l ko'rsatgan ustozdir. Xizmat faoliyati davomida bir necha bor rag'batlantirilgan.

– Shovqiddin tengqo'r hamkasblari orasida o'tkir zehni va tirishqoqligi, faolligi bilan ajralib turadi. Shaxsiy tarkib o'rtasida o'z hurmatiga ega, kelajagi porloq xodimlarimizdan biri. Undan umidimiz katta, – deydi ustoz o'z shogirdi haqida.

Shovqiddin Norqobilov bo'sh vaqti bo'lishi bilan jinoyatlarni ochish jarayoni tasvirlangan badiiy asarlar mutolaasiga oshiqadi. Ya'ni, detektiv adabiyotlarni o'qishni aslo kanda qilmaydi. Bu unda har qanday holatda jarayonlarni tez va aniq tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlashga hissa bo'lib qo'shiladi.

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Toshkent shahri.*



PSIXOLOG MASLAHATI

**Bugungi shiddatli hayot, axborot xurujlari hamda ijtimoiy muammolar insoniyatdagi ruhiy bezovtalikni kuchaytirayotgani, stresslarga sabab bo'layotgani hech kimga sir emas. Mazkur jihat fuqarolar bilan doimiy muloqotga kirishadigan kasb egalari, xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik bilimlarni puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Ya'ni, qonun himoyachisi suhbatdoshining xatti-harakati va yuz ifodasidan muayyan xulosa chiqargan holda u bilan muomala qilishi, zaruratga ko'ra qarshisidagi shaxsni stressdan chiqarishni eplashi zarur.**

Mazkur jarayonda samimiylik, toqatlilik, fuqaroning sizga suyanishi mumkinligiga ishonirish, uning kechinmalarini his eta olayotganingizni sezdirish muhim. Ana shunda u dilidagini to'kib soladi, yengil tortadi. Joyi kelganda aytish zarur, ruhiy zo'riqishlarga oziqlanish, himoyalani, mehr, hurmat,

yaqinlik, kognitiv, estetik hamda o'zni anglash kabi qator ehtiyojlarning qondirilmaligi sababdir. Bu esa ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xususan, ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Qisqasi, suhbatdoshingizning ishonchini qozonib, muammolarini aniqlab olganingizdan so'ng xizmat vazifangizdan kelib chiqqan holda huquqiy, psixologik, profilaktik, ijtimoiy, tibbiy

## SAMIMIY BO'LING!

yoki boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatishingiz kerak. Bu borada ichki ishlar organlari bilan faol hamkorlik qilayotgan davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yettiligi, 3-sektor ishchi guruhi ko'magiga tayangan ma'qul.

Ish va muloqotni bu tarzda tashkil qilish o'zingizni ham turli stresslardan himoyalaydi. Ammo mazkur yondashuv hamisha naf bera-vermaydi. Ya'ni, xizmat vazifangizni bajarish chog'ida boshqarib bo'lmas holatlar, jinoyatlar,

ayanchli hodisalar ustidan chiqasiz, qarshiliklarga duch kelasiz. Demakki, stresslardan himoyalani o'rganishingiz kerak.

Ruhiy zo'riqishlarga barham berish usullari ko'p va ular oddiy. Mavjud vaziyat, holat hamda hissiyotlarga nisbatan munosabatni o'zgartirish, jismoniy mashqlar, sport bilan shug'ullanish, butun tanani — oyoq uchidan to qo'l uchigacha bo'shashtirish, nafas mashqlarini bajarish, meditatsiya, jilmayish, totli yemak, o'zini xursand qilish, tabiatdan zavq tuyish, o'yinlar shular jumlasidan.

Yana unutmash kerakki, stresslar qon bosimi, yurak-ishemik, oshqozon-ichak va asab kasalliklari, revmatizm, artrit, qandli diabet hamda turli xil shamollashlarning omili hisoblanadi. Shunday ekan, tushkunlikka tushmaslik uchun barcha imkoniyatlarni ishga soling, mabodo stresslar sizni bezovta qilsa, ruhingizni davolash choralarini ko'ring. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu unchalik qiyin emas, psixolog maslahatlariga amal qilsangiz, kifoya.

**Omon ANORBOYZODA,**  
katta leytenant.

*Jizzax viloyati.*

## O'QISHNI TAVSIYA QILAMAN

## KITOB – ENG YAXSHI DO'ST

Kitob insonning umr yo'llarini yorituvchi nur, hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'la oluvchi sodiq do'st. Men ham bolaligidan kitobga oshno bo'lib ulg'aydim. Oilamizda ajoyib an'ana bor edi: ota-onam haftada aqalli bir dona bo'lsa-da, yangi kitob o'qishimizni talab qilishardi, keyin o'sha kitob haqida suhbat qurilardi. Suhbat davomida kitobni qay darajada o'qiganimizni sinovdan o'tkazishardi. Ko'ngillari to'lsa, o'qib tugatilgan kitob evaziga kichik bo'lsa-da, sovg'a berishardi. Bu biz uchun bayram edi.



Keyinchalik o'qigan kitoblarimning o'zimga yoqqan gaplarini kundalik daftarimning bir chetiga yozib qo'yadigan bo'ldim. Bu odatim hali hanuz o'zimga asqatadi. Chunki ichki ishlar organi tizimida ishlasam-da, ko'pgina tanlovlarda faol ishtirok etishga harakat qilaman. Ayniqsa, kitobxonlik tanlovlarida qatnashib bilimlarimni yanada boyitaman.

Xususan, «Zukko kitobxon», «Zakovat» intellektual o'yinlar, «Ajdodlar izidan», «Huquq bilimdoni», «Til bilimdoni» kabi tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritganman. «Postda» gazetasi-ning ham har bir sonini sevib mutolaa qilaman. Ayniqsa, «O'qishni tavsiya qilaman» ruknida bu safar qanday kitob haqida yozishibdi, deb darrov ko'z yugurtiraman.

Men ham mazkur rukn uchun o'zim yaqinda o'qib tugatgan kitobni tavsiya qilmoqchiman. Ato Hamdam va Leonid Chigrinning «Yapon zobiti. Yutaro Todaning asirlikda boshdan kechirganlari» tarixiy romanini o'zbek tilidagi tarjimasini o'qidim. Unda 1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi paytida Koreya qirg'oqlarida halokatga uchragan yapon dengiz floti

ofitseri Yutaro Toda haqida hikoya qilinadi. Yutaro Toda hayoti davomida turli og'ir sinovlarni boshdan kechiradi va kuchli irodasi, sabri, tez qaror qabul qilishi, taslim bo'lmasligi bilan kitobxon namuna bo'ladi. Yaponiya tarixi, Koreya tarixi yoki harbiy fantastikaga qiziqqan, badiiy asarlarni sevadigan, syujeti sabab o'ziga bog'lab qo'yadigan kitobni o'qishni istagan kitobxon bir nafasda o'qib chiqadigan roman bu. Ayniqsa, ichki ishlar organi tizimida xizmat qilayotgan xodimlar roman qahramonidan o'zi uchun juda ko'p xislatlarni o'zlashtirsa arziydi. Bir so'z bilan kitobxon bu kitobdan:

■ **hech qachon orzularidan voz kechmaslikni, davom etishga umid yo'qdek tuyulsa ham, istagan narsa uchun kurashish kerakligini;**

■ **iqtidorli va moslashuvchan bo'lishni, qiyin vaziyatga tushib qolganida taslim bo'lmasdan, muammoga yechim topishni;**

■ **hech qachon kitobni muqovasiga qarab baholamagandek, insonni tashqi ko'rinishiga qarab baholamaslikni;**

■ **do'stlikning qadriga yetishni va agar insonning o'zi yaxshi bo'lsa, unga hayoti davomida yaxshi insonlar yo'ldosh bo'lishini;**

■ **oilaning ahamiyatini tushunishni, oila kurashni davom ettirishga va hech qachon umidni yo'qotmaslikka turtki bo'lishini bilib oladi.**

Xadicha OLIMJONOVA,  
leytenant.  
Toshkent shahri.

## DONO VA BILIMLI BO'LISH FARQI

Bir mo'ysafid har doim o'z shogirdlariga ham bilim olish, ham dono bo'lish ahamiyatli ekanini uqtirardi. Undan bu ikkining farqi nimada ekanini so'rashganida, qariya shunday javob berdi:



– Bilimga kitob o'qish, o'quv mashg'ulotlari va ma'ruzalarga qatnashish orqali erishish mumkin. Donolik esa «o'zing», «o'zliging» deb atalmish kitobni chuqur o'rganish demak.

Bir muddatdan keyin esa qo'shimcha qildi:

– Ikkinchisi juda murakkab vazifa: chunki hayot har daqiqada senga yangi sahifalarni taqdim etadi.

## XOTIRJAMLIKNI SOATDAN O'RGAN

\* Har kim o'zi xohlagandek yashaydi va buning uchun o'zi badal to'laydi.

\* Bolalar bizga quloq solmaydi. Ular bizni ko'rib turadi.

\* Sabr tugagan joydan bardosh boshlanadi.

\* Xatoga yo'l qo'ymagan inson, odatda, hech narsa qilmagan bo'ladi.

\* Xotirjamlikni soatdan o'rgan. U hatto orqada qolsa ham hech qayerga shoshmaydi.

\* Agar kimdir gap bilan tushunishni istamasa, unga hammasini vaqtning o'zi tushuntirib qo'yadi.

Gulchehra AZIMOVA  
tayyorladi.

## HAYOT SABOQLARI

## TO'RT SATR SO'Z...

Baliq boshidan sasiydi, deymiz-u, lekin tozalashni dumidan boshlaymiz. Do'st topaylik, chin do'st bo'laylik, deb, do'stimizga xato-kamchiligini yuziga aytamiz-u, ammo do'st o'rniga dushman orttirib olamiz.

Ona tili o'qituvchisi «Ingliz tilini 3 oyda o'rgatamiz», degan e'longa ko'zi tushgach, dedi: «Ol-a, men yillab o'zbek tilini o'qitib, «x» bilan «h»ni farqlatolmadim-u, bular ancha-muncha harflarining yozilishi bilan o'qilishi boshqa-boshqa bo'lgan ingliz tilini bir chorakda o'rgatarmish... Tavbaa...»

Qaysar odam shunday kishiki, otasining nasihatidan ko'ra, bo'ringning tishiga ko'proq ishonadi. Yumshoq odam shundayki, toshni kesak, deb ayt, desangiz, tuproq, desam, maylimi, deydi.

Bir umr do'st qidirib, bironta sa-doqatli do'st topolmadim-a, degan kishiga, nahotki ular sizday odamni topolmagan bo'lsa-ya, degandim, chuqur o'ylanib qoldi.

Ko'ngil mulkiyam talon-toroj bo'ladi. Qachonki, faqat mehr olinaverib, oqibat qaytarilmasa.

Qo'lidan hech narsa kelmaydigan odam vaqtini osmonga uchirishni boplaydi.

Dangasaning rejasi tadbirkornikidan o'n chandon ko'p, desam, ishonavering.

Yoshlik bilan keksalik orasida chiziq gorizontol holatda yotsa, keksalik bilan yoshlik orasida vertikal holda turadi.

Xatolardan xulosa qilish yaxshi. Xulosani tahlil qilish yanayam yaxshi. Tahlilni talqin qilish har kimga

emas. Ammo talqinni talqon qilish tafakkursizlikdan boshqa narsa emas.

Ishonchni chinniday avaylash kerak. Chunki uni saqlash, ayniqsa, oqlash juda qiyin. Mening ishonchimni chilparchin qildi-ya, degan gaplar aslida shundan.

Qop-qop qog'ozlar yonib ketar – kulga aylanar, Yonmay qolar to'rt satr so'z – gulga aylanar.

Shuhrat RO'ZIYEV,  
iste'fodagi podpolkovnik.



## TUMAN TARIXI

## «KATTA SUV» HAQIQATGA YAQIN

Xatirchi tumani hududi o'tgan asrlarda Miyonko'l muzofoti, Kushoniya bekligi, Xatirchi bekligi, Xatirchi volosti deb yuritilgan. Mazkur tuman O'zbekistonning dastlabki 79 tumani qatorida ma'muriy-hududiy tuzilma sifatida rasman 1926-yilning 29-sentabrida tashkil topgan.

Hozirda Navoiy viloyatining dehqonchilik va sanoat taraqqiy topgan yirik tumanlaridan biri hisoblanadi. Tuman markazi bo'lgan Yangirabot shahri Iskandar Zulqarnayn zamonida Parkent, arablar istilosi davriga kelib Faraxkent, Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davridan XVII asrgacha esa Faroxin qishlog'i, qal'asi deb yuritilgan.

Xo'sh, «Xatirchi» atamasining ma'nosi nima? Abdurazzoq xo'ja ibn Abdurahob xo'ja Badir ota tijorat ishlari, savdosotiq va bozor munosabatlari qonun-qoidalariga bag'ishlab hijriy 1277–1278-yillarda yozgan «Kitobi bay'ya» asarida o'zlari tug'ilgan yerni «Joi mavludash qishlog'i Qoracha asho'bai Xatirchigi bexatar», deb tilga olganlar.

Turli manbalarda «Xatirchi» so'zining lug'aviy ma'nosi turlicha talqin etilgan. Ayrim tarixchilar tumanning nomi «Xatirli», «Xatirchi», «Xatirchi» kabi so'zlardan kelib chiqqan deb taxmin qilishadi. Ammo Xatirchining nomi «Katta suv» ma'nosini anglatadi deb hisoblay-

diganlar ham bor. Darhaqiqat, arabchada «xatr» – katta, «jo'» – suv ma'nolarini anglatadi. Chunki Zarafshon daryosining o'zani tuman hududiga yetmasdan ikkiga – Oqdaryo va Qoradaryoga bo'linadi. Daryolarning qo'shilishi esa aynan Xatirchi tumanidan o'tgan qismiga to'g'ri keladi. Mantiqan olib qaraganda, ikki daryoning qo'shilgan joyi, albatta, katta suvning boshlanishi bo'ladi-da.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.



## INSON VA TABIAT

## OZON QATLAMINI YEMIRAYOTGAN GAZ

Ona sayyoramiz aholisi tobora ko'payib bormoqda. Joriy yilning aprelida yetti milliardinchi inson tug'ildi. U hali aqlini tanib olmagan go'dak, o'ziga ajdodlari tomonidan qanday «meros» qoldirilayotganidan mutlaqo bexabar. Taassufki, bu chaqaloq yashayotgan kurrayi zamin hatto yarim asr oldingi holatidan ham katta farq qiladi. Biologik xilma-xillikning qisqarayotgani, dengiz sathining ko'tarilayotgani, abadiy muzliklarning erib ketayotgani, o'rmon yong'inlari, tabiiy landshaftlar va savannalarning yo'qolib borayotgani hozir uni zarracha tashvishga solmaydi. Lekin kelgusida ushbu o'zgarishlarning salbiy oqibatlaridan, albatta, aziyat chekadi.

Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, sanoat inqilobi boshlangan 1850-yildan buyon atmosferaga 2400 gigatonna is gazi chiqarilgan. Havoga is gazi chiqarish bo'yicha mutlaqo yetakchi davlat Xitoydir. Dunyoning birinchi iqtisodiy maqomiga erishgan bu mamlakat yiliga 14 gigatonna karbonad angidridni ishlab chiqaradi. Bu esa jamiki is gazining 27 foizini tashkil etadi. Ikkinchi o'rinni esa AQSH egallab turibdi. Yiliga jami chiqarilgan is gazining 17 foizi ushbu davlat hissasiga to'g'ri keladi.

Is gazining eng dastlabki salbiy oqibati atmosferadagi ozon qatlamining yemirilishi bilan bog'liq. O'tgan asrning 80-yillarida olimlar Arktika va Antarktida osmonida kislorod dioksidining noyob qatlami ulkan doirasimon tarzda yo'q bo'lib ketganini aniqlashdi. Bu ko'pchilikni tashvishga soldi. Gap shundaki, quyoshdagi yadroviy reaksiyalar natijasida juda katta diapazondagi hayot uchun xavfli radiatsion nurlar koinotga taraladi. Bu nurlar hayot uchun xavflidir.

Atmosferaning yuqori qatlamini yupqa po'st singari qoplab olgan kislorod dioksidi, boshqacha aytganda, ozon gazi ana shu nurlarni kurrayi zamanga o'tkazmaydi. Ayniqsa, ultrabinafsha nurlar ko'plab tirik



jonzoqlarning qirilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Ular insonda teri saratoni kasalligini keltirib chiqarishgacha bo'lgan darajada xavfli. Ozon qatlami asosan is gazi ko'payishi va atmosferaga freonning chiqarilishi natijasida yemiriladi.

Havo ummonidagi uglerod qo'shoksidi ko'payishi natijasida paydo bo'lgan yana bir salbiy oqibat yer va ummondagi haroratning ko'tarilib borayotganidir. Global isish nomini olgan ushbu holat XVIII – XIX asrlarda boshlangan. 1800-yilga kelib yer yuzidagi o'rtacha harorat 1,2 darajaga ko'tarilgan. Sanoat

ulkan miqyosda rivojlangan XX – XXI asrlarda esa harorat o'rtacha 1,7 darajadan 4,8 darajagacha ko'tarilgani aniqlangan.

Issiqxona effektining asosiy sababi quyoshning infraqizil energiyasini kurrayi zamin qayta shakllantirib, yana koinotga yo'naltirib yuboradi. Atmosferadagi is gazi esa ushbu jarayonga to'g'anoq bo'ladi. Infraqizil nurlarning chiqib keta olmasligi haroratning ko'tarilishiga olib keladi. Oqibatda ayni paytda ko'plab mamlakatlarda noodatiy jazirama, cho'llarning kengayishi, daryo, ko'llarning

qurishi kuzatilmoqda. Harorat oshishi natijasida o'rmon yong'inlari kelib chiqyapti. Abadiy muzliklar erib bitmoqda. Bu esa kelgusida chuchuk suv muammosi yanada global ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Havo harorati keskin ko'tarilib, muzliklar erishi tufayli ummonlar sathi ham ko'tarilib boryapti. Taxminlarga qaraganda, yaqin kelajakda Amerika qit'asi va Yevropadagi bir qancha mamlakatlarning dengiz qirg'oqlari anchagina ortga chekinaidi. Boshqacha aytganda, bir nechta yirik shaharlarning salmoqli qismi suv ostida qoladi.

Chuqur ekologik inqirozga olib kelayotgan is gazining atmosferaga chiqarilishiga qarshi bir qancha choralar ishlab chiqilgan. Shu maqsadda 1992-yilda BMT Konvensiyasi, 1997-yilda atmosferaga uglerod gazlarini chiqarishni cheklashga qaratilgan Kioto protokoli qabul qilindi. 2015-yilda esa 200 dan ortiq davlat Parij shartnomasini imzoladi. Unga muvofiq, har bir davlat atmosferaga chiqariladigan is gazini cheklashga qaratilgan qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston global harorat ko'tarilishi fonida «yashil energiya»ga o'tish yo'lidan ketayotgan davlatlardan. Mamlakatimizda gidroenergiya, quyosh, shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga katta sarmoya ajratilyapti. Sanoat korxonalaridan tomonidan atmosferaga zararli gazlarni chiqarish salmog'i yildan-yilga kamaytirib borilmoqda.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.



## MAZALI VA FOYDALI

**Ochig'i, mehmondorchiliklarga borganda, dasturxonni bezab turgan ajoyib ko'rinisdagi ajdar mevasi ko'pchilik uchun yangilik, desam, adashmayman. Bu o'zi qanday meva, foydasi bormi, qanday iste'mol qilinadi, qancha yeyish mumkin?**

Ajdar mevasining asli vatani Meksika, Karib dengizi va Markaziy Amerikadagi tropik o'rmonlar hisoblanadi. Keyinchalik u fransuzlar va gollandlar tomonidan Vyetnamga kiritildi va hozirda Xitoyda keng yetishtirib kelinadi.

Mevaning ta'mi nozik, shirin va ozgina nordon, tarkibining 85 foizi suvdan iborat. U o'zida foydali bo'lgan ko'plab vitamin va minerallarni jamlagan.

Bu meva iste'moli orqali yurakning bir maromda urishi, asab tizimining me'yoriy holatda bo'lishini ta'minlash mumkin. Uning qora va mayda urug'chalari o'zida juda ko'p miqdorda tanin

moddasini saqlaydiki, bu insonning ko'rish qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Endokrin kasalliklarga chalinganlar bu mevani o'z ratsioniga qo'shishi foydali. Qandli diabetda u qonda shakar miqdorini normallashtiradi, metabolizmga ishtirok etadigan, immunitetni rag'batlantiradigan va energiya zaxiralarini ko'paytiradigan V va S vitaminlari bilan to'yingan bo'ladi.

Meva tarkibidagi mikroelementlar kollagen ishlab chiqarishni faollashtiradi. Shuning uchun har kuni kamida bitta meva iste'mol qilsangiz, terining qarishi va yuzingizga ajinlar soya solishining oldini olishga erishasiz.



Pishgan mevasi tarkibida juda ko'p kalsiy va temir mavjud. Shunga qaramay, uning kaloriyasi boshqa mevalarga nisbatan past, shu bois vazn yo'qotish uchun kurashayotganlar bu mevani o'z ratsioniga bema'lol kiritisa bo'ladi.

Ajdar mevalari bolalar uchun ham juda foydali. Ammo unutmangki, boshqa ekzotik mevalar singari, bu meva ham o'tkir allergik xususiyatga ega. Shuning uchun 5 yoshga-

cha bo'lgan bolalarga bermagan ma'qul. Pediatrlar hatto maktabgacha yoshdagi bolalarga bu meva iste'molini taqiqlashadi. Chunki uning kichik bo'lari ham o'tkir allergik kasallik yoki diatezga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois birinchi iste'moldan avval kichik bir bo'lagini tatib ko'rish va noxush holatlar yuzaga kelmaganiga to'liq amin bo'lgach, sekin-asta miqdorini ko'paytirib borish mumkin.

Ajdar mevasi pishgan, yeyishga tayyor bo'lganda, uni pichoqsiz ham qo'llar bilan osongina tozalash mumkin. Mevani sovutilgan holda iste'mol qilish tavsiya etiladi, chunki bu bilan uning betakror ta'mini his etishga erishasiz.

Urug'lari tarkibida foydali lipidlar mavjud. Lipidlarning tanaga singib ketishi uchun ularni yaxshilab chaynash kerak.

Ajdar mevasini qayta ishlash orqali sharbat, muzqaymoq, chips va yana o'nga yaqin turli-tuman shirinliklar tayyorlanadi. Shuningdek, parfyumeriya va kosmetika ishlab chiqaruvchilar ham davolovchi niqob, kremlar va shampunlar tayyorlashda foydalanadi.

**Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.**

## СУХОСТЬ ВО РТУ

**Означает, что ваш организм вырабатывает недостаточно слюны, чтобы поддерживать необходимый уровень влаги в ротовой полости. Сухость во рту бывает у каждого, особенно, если вы нервничаете, расстроены или находитесь в состоянии стресса.**



Однако если вы постоянно испытываете подобное, это не только вызывает неприятное ощущение, но и может привести к другим нарушениям здоровья или даже являться симптомом более серьезного заболевания. Это происходит потому, что в функции слюны входит гораздо больше, чем простое поддержание уровня влаги. Она помогает переваривать пищу, защищает зубы от кариеса, предотвращает развитие инфекции, контролируя жизнедеятельность бактерий во

рту, а также делает возможным пережевывание и проглатывание пищи.

Единственный способ вылечить сухость во рту – устранить причину заболевания. Если сухость полости рта – побочный эффект прописанного лекарства, возможно, что врач изменит дозировку или пропишет новое средство. При частичном нарушении функции слюнных желез некоторое количество слюны продолжает поступать в ротовую полость. В таких случаях вам могут прописать лекарство

для улучшения секреции слюнных желез.

Если причина не может быть полностью устранена или может быть устранена со временем, существует несколько способов повысить уровень влаги в ротовой полости. Стоматолог может порекомендовать увлажняющее средство, например, заменитель слюны. Полоскание рта ополаскивателями, специально созданными для увлажнения ротовой полости, уменьшает остроту симптома сухости.

### Рекомендуется:

- чаще пить воду и напитки, не содержащие сахар;
- избегать напитков, содержащих кофеин, некоторых газированных напитков, потребление которых усиливает ощущение сухости;
- жевать жевательную резинку или сосать твердые леденцы без содержания сахара, что стимулирует слюноотделение (в случае, если функция слюнных желез нарушена частично);
- прекратить курение и потребление алкогольных напитков, которые снижают уровень влаги во рту;
- использовать увлажнитель воздуха во время сна.

**Перед применением обязательно посоветуйтесь с врачом!**

## А вы знаете, что...

Вода помогает держать наше тело в тонусе. Иногда мы думаем, что голодны, хотя на самом деле мы просто хотим пить.

\* \* \*

Вода помогает нашей коже сиять. Регулярное потребление воды может улучшить цвет и текстуру кожи, при этом она также поддерживает построение новых клеток должным образом.

\* \* \*

Количество потребляемой жидкости является ключевым фактором для активной работы головного мозга. Недостаток питьевой воды может негативно повлиять на концентрацию внимания и кратковременную память.

\* \* \*

В отличие от других жидкостей, вода при замерзании расширяется. Это уникальное свойство помогло сохранить жизнь на Земле во времена ледникового периода: реки и озера замерзают сверху вниз, поэтому в них всегда есть жидкая вода, способная поддерживать существование различных форм жизни.

\* \* \*

Холодная вода замерзает медленнее, чем горячая. По мере нагревания молекулы воды занимают позиции, из которых им проще переходить к кристаллической структуре льда.



★ Таланты среди нас

## ВТОРАЯ НАТУРА РЯДОВОГО НАЗАРОВА

Еще в студенческие годы Азизбек Назаров обрел определенную известность у публики выступлениями в составе команды Клуба веселых и находчивых.

А. Назаров родился в Ходжейлийском районе. Проявлял склонность к творчеству с детства. В школьные годы участвовал во всевозможных вечерах и культурных мероприятиях. Позже его включили в состав ансамбля, в котором выступали его дяди, Икрам и Уктам. В 2004 году Азизбек поступил в педагогический институт имени Ажинияза. Уже на первом курсе стал капитаном институтской команды КВН «Турон». Вместе с ее членами – Тангиром Бекбергеновым, Манасом Султановым, Нурланом и Дастаном Бектурсиновыми не раз становился призером игр КВН среди команд вузов страны.

В 2008 году по инициативе МВД Каракалпакстана был объявлен отбор в ансамбль ведомства «Арал жулдызлары». Азизбек успешно прошел испытания и был зачислен в ансамбль с одновременным принятием в органы внутренних дел.

С этого момента в составе творческой группы он участвует в праздничных мероприятиях, проводимых в системе министерства и на республиканском уровне. Параллельно рядовой



А. Назаров является младшим инспектором службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения МВД Республики Каракалпакстан.

Его знают также в качестве члена команды «Патруль» МВД Узбекистана. Выступая в ее составе, он внес вклад в то, что в 2023 году «Патруль» занял второе место в конкурсе команд КВН.

– Стараюсь, чтобы известность на поприще юмористов не отражалась на выполнении служебных

обязанностей, – говорит А. Назаров. – Когда при беседе с населением кто-либо из присутствующих пытается шутить, имея в виду мою вторую натуру, отвечаю в рамках того, что предписано инспектору. Да и в юмористических сценках команда «Патруль» предпочитает розыгрыши, рассчитанные на образованных и начитанных зрителей.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**  
соб. корр.

Республика  
Каракалпакстан.



ИИБ Фахрийлар кенгаши ички ишлар органлари фахрийси, кенгаш аъзоси, истеъфодаги подполковник  
**Шухрат КАМОЛОВ**нинг вафот этгани муносабати билан мархумнинг оила аъзолари ва яқинларига ҳамдардлик билдиради.

ИИБ Фахрийлар кенгаши ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги майор  
**Фахриддин ЗАЙНИДДИНОВ**нинг вафот этгани муносабати билан мархумнинг оила аъзолари ва яқинларига таъзия изҳор этади.

Бухоро вилояти ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши бошқарма Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлиғи ўринбосари – Маънавий-маърифий ишлар бўлими бошлиғи, подполковник Шухрат Ҳайитовга отаси

**Карим ҲАЙИТОВ**нинг вафот этганлиги муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

## MUNAJJIMLAR BASHORATI (29-iyuldan – 4-avgustgacha)



**Qo'y.** Baxt xotirjamlikni yaxshi ko'radi, shu sababdan atrofdagilarga o'z yutuqlaringizni oshkor qilavermang. Janjallashgan yoki arazlashgan insonlar bilan yarashish uchun o'zingizda kuch toping. Kelib tushishi kutilayotgan daromad o'zgaruvchan kayfiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



**Buzoq.** Yechimini ortga surib yurgan muammolarni hal etish uchun qulay davr. Ularni osonlikcha amalga oshirish uchun yaqinlaringizdan yordam so'rang. Bu orada uyqu va dam olish tartibiga rioya qilishni unutmang. Kutilayotgan haftada moliyaviy tushumlar kuzatiladi, shuning uchun ko'pdan beri orzu qilgan narsalarni bema'lol xarid qilishingiz mumkin.



**Egizaklar.** Bu hafta davomida sizda kimnidir tanqid qilish yoki noo'rin so'z bilan ko'nglini og'ritish istagini uyg'otishi mumkin. O'zingizni qo'lga olib, aql bilan ish yuriting. Ruhiiy muvozanatni saqlashga harakat qiling, bu sizga atrofdagilar bilan to'g'ri muomala qilishga yordam beradi.



**Qisqichbaqa.** Salomatlik va tashqi ko'rinishga jiddiy e'tibor qaratib, shunda ko'tarinki kayfiyatga ham ega bo'lasiz. Bu haftada yirik pul aylanmalari bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish tavsiya etilmaydi. Aksincha, ayni damda mablag' sarflash emas, pul yig'ish lozim bo'ladi.



**Arslon.** Kutilmagan daromad hayotdagi ehtimoliy o'zgarishlarni yengil boshdan kechirishga yordam beradi. Ulardan aslo cho'chimang: kerakli burchak ostidan qaralganda bu o'zgarishlar ayni muddao bo'lganini tushunib yetasiz. Ulardan ba'zilarining hayotida og'ir davr kechayotgan bo'lishi va bunda faqat sizning yordamingiz tegishi mumkin.



**Parizod.** Ayni davr o'zingizga vaqt ajratish uchun qulay vaqtdir. Ishda rag'batlantirish olish yoki lavozimingiz ko'tarilishi ehtimoli yuksak. Lekin hissiyotga berilib, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun har bir ish-harakatni yaxshilab o'ylab amalga oshiring.



**Tarozi.** Dastlabki kunlar kasb-hunar sohasida muvaffaqiyatlar va moliyaviy daromadlar kutilmoqda. Foydali odamlar bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi mumkin bo'lgan xizmat safarlari, shaxsiy ish bilan uzoq o'lkalarga sayohatlar omadli kechadi.



**Chayon.** Hafta boshida taqdiringizni o'zgartirishga qodir yangi tanishuv yuz berish ehtimoli yuksak. Keyingi kunlar «ish-uy» tartibida o'tadi. Juma kuni kayfiyatingiz tushib, o'zingizni yomon his qilishingiz mumkin. Dam olish kunlari hech qayerga chiqmay, oila a'zolari bilan xotirjamlikda vaqt o'tkazish tavsiya etiladi.



**O'qotar.** Hafta yakunigacha to'planib qolgan barcha ishlarni hal etishga harakat qiling. Vaqt o'tishi bilan ularni bajarish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'zingiz uchun vaqt ajrating, masalan, oqshomlari sayrga chiqing, dam olish kunlari maroqli hordiq chiqaring.



**Tog' echkisi.** Dushanba va seshanba kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, shu kunlarda sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Ayni hafta faol harakatlar davri bo'lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish uchun yaxshi imkoniyatdir.



**Qovg'a.** Bu hafta sog'liqqa jiddiy e'tibor qaratib, turli texnika va mexanizmlarni boshqarishda o'ta ehtiyotkor bo'lish lozim. Hozircha ishdagi katta yutuqlarga umid qilmang. Juma kuni tashvishlanish va xavotir hissi yuzaga kelishi mumkin.



**Baliq.** Dastlabki ikki kun biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofdagilar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo keyingi kunlar kayfiyatingiz ko'tarilib, qo'l urgan ishlaringiz oson va yengil hal etila boshlaydi.

# BOLALAR O'ZGARMOQDAMI YOKI O'ZIMIZ?

**Biz azaldan bolajon, o'zi yemasa ham bolasiga yediradigan, o'zi kiymasa ham bolasiga kiydiradigan xalqmiz. Chunki bolaga bo'lgan mehrimiz beqiyos. Aslida qudratimiz ham, shuhratimiz ham shunda. Inchunin, kelajagimiz yoshlarga bog'liq. Yoshlarning iligi to'q, aqli to'lishgan va jismonan chiniqqan bo'lishi kerak, bugungi kunda.**



«Fazilatlar kitobi»da «Oila boshlig'i ahli ayoli va farzandlari haqqini ado etishi lozim. Ularni boshqa biror narsaga muhtoj qilmay nafaqasini berish Islom qoidalaridan hisoblanadi. Oilasidan ortganini boshqalarga berishi durust, chunki ota avvalo oilasiga e'tibor bersin» degan ibratli iboralar bilan oila boshlig'ining majburiyati ko'rsatib o'tilgan.

Qachonki ota o'z majburiyatini unutsa, bilingki, bu oilada kemtiklik paydo bo'ladi. Ya'ni, er-u xotin o'rtasida, farzand-u yaqinlari o'rtasida hayo pardasi ko'tariladi. Hurmat va izzat ko'rsatish, bir-biriga ishonch, sadoqat nomigagina qoladi. Agar vaqtida buning ham chorasi ko'rilmasa yoki oldi olinmasa, oqibati juda yomon bo'ladi. Oilada erkakning o'rni qolmaydi.

Yaqinda bekatdagi ona bilan qizning suhbatini eshitib, seskanib ketdim.

– Qo'shnimizga mazza. Davlat pul, elektromototsikl va issiqxona qurib berdi, – deya noliy boshladi 15–16 yoshlardagi qiz.

– Dugonangni otasi yo'q. Davlat qilib beradi-da, – dedi ona.

– Mening otam bo'lib, nima karomat ko'rsatdi. Har kuni sizni uradi. Na pulimiz bor, na bir oddiy velosipedimiz. Dugonam kunda muzqaymoq yeydi. Unga havasim keladi. Men-chi, yeganning og'ziga qarab yuraman. Shu ham insofdanmi, ona?!

– Noliyverma, har qalay qornimiz to'q, ustimiz but. Bir kun bizlar ham boy bo'larmiz, qizim. Umid bilan yasha, – dedi onaizor qizini murosaga keltirish uchun.

– Dadam bo'lib pul bermasa, kiyintirmasa, undan ko'ra dadam bo'lmagani yaxshi ekan. Ham pullik, ham mototsikllik, ham tadbirkor bo'lardik...

O'sha kundan beri bo'yi yetgan qizning «dadamning

boridan yo'g'i yaxshi» degani xayolimdand sira ketmadi. Balki u ham bunday qarorga birdan kelmagandir. Balki pichoq suyakka borib qaldagandagina shuni aytishga majbur bo'lgandir. Qizning otasi kabi mehnatga bo'yin egmay, ish desang, allergiyasi qo'ziydigan kishilar ko'pincha jinoyatga qo'l uradi.

Olis cho'lquvarlar va neftchilar tumani hisoblangan qorovulbozorliklarni olaylik. Bu yerda dehqonchilik qilishning o'zi bo'lmaydi. Chunki yozda eng issiq hudud deb tan olingan. Tumanning Imom Buxoriy nomli mahallasidagi fayzli xonadonlardan birida G'. Tilavov oilasi bilan istiqomat qiladi. U xonadonidagi 1 sotix maydonda mo'jazgina issiqxona tashkil etgan. Issiqxonaga kuzda ekan atirgul nihollari orqasidan 20 million so'mga yaqin daromad ko'rdi. Tom-

orqasining qolgan joylarida kartoshka, piyoz, pomidor, bodring, ko'katlar va shunga o'xshash sabzavotlar yetishtirib, ro'zg'orining «g'ori»ni to'ldirib kelyapti. Yana 30 ta asalari oilasi bor. Undan ham daromadi yomon bo'lmaydi. Bundan tashqari, chorva mollarini aytmaysizmi?!

Mashhur rus yozuvchisi Anton Chexov quyidagi «Farzandlaringizga tarbiya bermang, ular baribir sizga o'xshab ulg'ayishadi. Shu sabab, avvalo, o'zingizni tarbiya qiling», deganida ming karra haq bo'lgan. Zotan, avvalo o'zimiz to'g'ri tarbiyalanishimiz va mehnatga chiniqqanimiz lozim. Mehnatning tagi rohatligini yoki qimirlagan qir oshishini o'zimiz anglasak, farzand-u nabiralirimiz bizdan o'rnak olishadi. Ha, azizlar! «Hurmatning – savlatning, mehnatning – davlatning»dir.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Buxoro viloyati.*

Press-tur

## TAKLIFLAR KO'RIB CHIQLADI

**Toshkent shahar IIBB YHXB rahbariyati tashabbusi bilan poytaxt bo'ylab yo'l-transport hodisalarini xavfi yuqori bo'lgan va piyodalar yo'lining belgilanmagan qismidan o'tib, qoidabuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan joylarda deputatlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida press-tur tashkil etildi.**



Press-turdan ko'zlangan asosiy maqsad – yo'l transport hodisalarini xavfi yuqori bo'lgan joylarni batafsil ko'zdan kechirish orqali muammolarni bartaraf etish, bu borada xalq fikri, jamoatchilik munosabatini o'rganishdan iborat. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi hamda ular bildirgan har tomonlama asosli takliflar amaliy jihatdan ko'rib chiqilishi ta'minlanadigan bo'ldi.



Postda  
Ha nocty

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

kapitan Mixli SAFAROV  
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

**Obuna masalalari  
bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)

E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonaning manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma № 2532.

Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 45446 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.